

ISSN: 2181-3310

# MUTAFAKKIR

Scientific Journal / Научный журнал / Илмий журнал

№ 7. OKTYABR [2022]

7-son



**Bosh Muharrir:**  
Shohinur Mirzayev

**Tahrir hay'ati**  
Baxtinur Xudanov  
Akbar Elmurodov  
Shuhrat Ziyadullayev  
Muxtor Xudoyqulov  
Ulug'bek Vohidov  
Murod Abulkasimov  
Mamanazarov Oybek  
Shomurodovich

**ALISHER NAVOIY**  
**NOMIDAGI O'ZBEKISTON**  
 **MILLIY KUTUBXONASI**  
Kitob va turkum  
nashrlarga ISBN va ISSN  
raqamlarni biriktirish  
to'g'risida

## MA'LUMOTNOMA

Turkum nashrlarning  
chiqish ma'lumotlarini GOST  
7.4-95 «Nashrlar. Chiqish  
ma'lumotlari» hamda GOST  
7.56-2002 « Xalqaro standart  
turkum raqami» davlatlararo  
standartlar talablari asosida  
bo'lishini to'liq ta'minlash  
maqsadida, Alisher Navoiy  
nomidagi O'zbekiston Milliy  
kutubxonasi va «Mutafakkir»  
1ta 2022 yil 11-apreldagi  
№ ISSN-C-35583 sonli  
hisob-kitob shartnoma va  
2022 yil 19-aprel yildagi №  
ISSN-I-35583 schet-fakturaga  
asosan turkum nashrlarini  
ISSN bilan belgilash uchun  
quyidagi raqamni taqdim  
etadi:

Turkum nashrning nomi:  
Мутафаккир  
ISSN raqam: 2181-3310

Ushbu jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy  
Attestatsiya komissiyasining ilovasida mavjud bo'lgan  
xalqaro indeksatsiya **index copernicus** bazasiga kiritilgan.  
OAK ilmiy nashrlarda chop eilgan maqola sifatida qabul  
qilinadi.

**Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya  
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini  
chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati**

<sup>1</sup> Мақола чоп этилган пайтда халқаро миқёсда фаолият кўрсатадиган  
қўйидаги ийрик нашриётлар ёки маълумотлар базаси асосида «импакт-  
фактор»га эга бўлган илмий журналларда нашр этилган мақолалар  
мазкур Рўйхат таркибига киритилган илмий журналларда чоп этилган  
ilmий мақолалар сифатида қабул қилинади: (1) Web of Science  
(Web of Knowledge), (2) Journal Impact Factor, (3) Scopus, (4) Journal  
Citation Reports, (5) Global Impact Factor, (6) International Impact Factor  
Services, (7) Agris, (8) Chemical Abstracts CAS, (9) GeoRef, (10) PubMed,  
(11) Springer, (12) Index Copernicus, (13) Bielefeld Academic Search  
Engine, (14) ResearchBib, (15) Directory of Research Journals Indexing,  
(16) Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor,  
(17) Open Academic Journals Index, (18) Ulrich's Periodicals Directory,  
(19) Scientific Indexing Services, (20) General Impact Factor, (21) InfoBase  
Index, (22) International Society for Research Activity, (23) Scientific Journal  
Impact Factor, (24) Scientific Research Publishing Inc, (25) Directory of  
Open Access Journals, (26) Academic Journals Database, (27) Academic  
One File, (28) Advanced Science Index, (29) Anthropological Index Online,  
(30) Anthropological Literature, (31) Anthropology Plus, (32) Asian Education  
Index, (33) Bibliography of Asian Studies, (34) Compendex, (35) CrossRef,  
(36) HINARI, (37) Hindawi, (38) Libraries Resource Directory, (39) Impact  
Factor Search, (40) ResearchGate, (41) SCImago, (42) Scisearch,  
(43. з/х) Universal Impact Factor.

Шунингдек, жаҳоннинг иккى юзта энг яхши олий таълим муассасаси  
рўйхатидаги олий таълим муассасалари томонидан чоп этилган  
ilmий ишлар ва мақолалар тўпламида нашр этилган илмий мақола  
(материал)лар мазкур рўйхатга киритилган илмий нашрларда чоп  
етилган мақолалар сифатида қабул қилинади.

## UY-JOY FONDINI PROFESSIONAL BOSHQARISHNING ME'YORIY-HUQUQIY VA TASHKILIY ASOSLARI

dots. Rahimov Qodir Ergashevich

Toshkent arxitektura – qurilish instituti

**Annotatsiya.** Ushbu maqola uy-joy fondini professional boshqarishning me'yoriy-huquqiy va tashkiliy asoslariga bag'ishlangan. Maqolada ko‘p kvartirali uylarni boshqarishning tashkiliy-huquqiy asoslarini tashkil etuvchi hujjatlarning ahamiyati o‘rganilgan, ba’zi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**Abstract.** This article is devoted to the regulatory and organizational foundations of professional management of housing stock. The article examines the significance of the documents that make up the organizational and legal basis for the management of apartment buildings, offers suggestions and recommendations for amendments and additions to some regulatory legal acts.

**Аннотация.** Данная статья посвящена нормативно-правовым и организационным основам профессионального управления жилищным фондом. В статье изучено значение документов, составляющих организационно-правовые основы управления многоквартирными домами, даны предложения и рекомендации по внесению изменений и дополнений в некоторые нормативные правовые акты.

**Keywords:** managing organization, homeowners association, management method, owners of premises, apartment building, billing system.

**Kalit so‘zlar:** boshqaruvchi tashkilot, uy-joy mulkdorlari shirkati, boshqarish usuli, uy-joy mulkdorlari, ko‘p kvartirali uy, billing tizimi.

**Ключевые слова:** управляющая организация, товарищество собственников жилия, способ управления, собственников помещений, многоквартирный дом, биллинговая система.

**Kirish qismi.** So‘nggi yillarda ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini takomillashtirish, ko‘p kvartirali uylardagi umumiyl mol-mulkni saqlash va ta’mirlash, ularga tutash yer uchastkalarini aniq belgilash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Uy-joy communal xizmat ko‘rsatish vazirligi tomonidan uy-joy communal sohada amalga oshirilayotgan ishlar holati o‘rganilganda, ko‘p kvartirali uylarni boshqarish sohasida ko‘plab muammolar yig‘ilib qolganligi, aksariyat shirkatlarning юқори qarzdorligi va ularning faoliyati qoniqarsizligi hamda mulkdorlarning shirkatlar boshqaruvidan norozi ekanligi aniqlandi. Ko‘p kvartirali uylar boshqaruvidagi mavjud

muammolarni aniqlash va to‘liq bartaraf etish, boshqaruv sifati va samaradorligini oshirish, sohagi isloholatlarni tizimli amalga oshirish maqsadida 2017-2022 yillarda O‘zbekiston Respublikasining 1 ta Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1 ta farmon va 3 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 10 ga yaqin qarorlari qabul qilindi.

Shu bilan birga, respublikada faoliyat olib borayotgan 772 ta uy-joy mulkdorlari shirkatlarining 311 tasida muammoli kreditor qarzdorliklari mavjud bo‘lib, 2,5 mingdan ziyod ko‘p kvartirali uylarda istiqomat qiluvchi aholiga tegishli xizmatlar ko‘rsatilmay yoki sifatsiz ko‘rsatib kelinmoqda<sup>1</sup>. Bunda, shirkatlar ko‘p kvartirali uylarni boshqarish prinsiplariga amal qilmaganligi, boshqaruv faoliyatini mulkdorlar bilan hamkorlikda tashkil etmaganligi, pul mablag‘laridan maqsadli foydalanish ustidan yetarlicha jamoat nazorati o‘rnatilmaganligi asosiy omillar bo‘lib hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Mustaqillik yillarida uy-joy kommunal sohasida amalga oshirilgan islohotlarga bog‘liq ravishda mazkur sohaga mas’ul davlat organlari bir necha bor qayta tashkil etildi. Jumladan, O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1988-yil 5-noyabrdagi 418-sun qaroriga muvofiq O‘zbekiston SSR Uy-joy-kommunal xo‘jaligi ministrligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 15-iyuldagagi “O‘zbekiston Respublikasida Kommunal xizmat ko‘rsatishni boshqarishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-617-sun Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 22-iyuldagagi 371-sun qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 19-dekabrdagi “Kommunal xizmatni boshqarish tizimini yanada isloh qilish to‘g‘risida”gi PF-2791-sunli Farmoniga muvofiq “O‘zkommunxizmat” agentligi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5017-sunli Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi sohaning vakolatli davlat organi sifatidagi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, shu bilan birgalikda mustaqillikni dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasi Kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi faoliyati yo‘lga qo‘yilishi munosabati bilan uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan muhim me’yoriy-huquqiy hujjatlar va ularning ijrosi natijasida erishilgan natijalarini quyidagi bosqichlarda ifodalash maqsadga muvofikdir:

- 1991-yilgacha bo‘lgan davr;
- 1991-2000 yillar;
- 2001-2016 yillar;
- 2017-yildan hozircha.

**1991-yilgacha bo‘lgan davrda** uy-joy fondini boshqarish holatini fisqacha mazmunini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak<sup>2</sup>, bu davrda uy-joy kommunal xo‘jaligi tizimida

1 <https://lex.uz/uz/docs/-6141482>

2 Yodgorov V.U., Butunov D.Ya. Uy-joy kommunal xo‘jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi.

barcha resurslar markazlashgan tartibda, shujumladan, yangi qurilib ishga tushirilayotgan uy-joy fondlari ham aholining turar joyga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqib tashkil etilgan navbat asosida taqsimlangan. bundan tashqari, uy-joy fondini ekspluatasiya qilish va kommunal xizmatlar ko‘rsatish ishlari monopol davlat korxonalarini tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, ish va xizmatlar uchun yuqorida begilangan narxlar nomutanosib bo‘lib korxona va tashkilotlar oлган foyda markazlashtirilgan hamda ular tomonidan zarar ko‘rilgan taqdirda, bu zararni qoplash uchun davlat tomonidan dotsasiya ajratilgan. Shaxsiy uy-joy mulkiga egalik qilish huquqi davlat uy-joy fondidan ajratilgan kvartiradan foydalanish huquqidan amalda kamdan kam farqqa ega bo‘lgan. Davlat korxona va tashkilotlariga o‘z xodimlarini uy-joy bilan ta’minlash va tegishli uy-joy fondini ekspluatasiya qilish vazifalari yuklatilgan bo‘lib, shahar (hudud) kommunal xo‘jaligi sohasini alohida tizimi sifatida boshqarish imkonini bermagan. Asosiy xarajatlarning byudjet tomonidan ajratilishi, tushum va xarajatlarning to‘liq rejalashtirilishi, iqtisodiy manfaatdor bo‘lish imkoniyati mavjud emasligi kommunal xo‘jaligi tizimi korxonalarining samarali faoliyat ko‘rsatishiga to‘sqinlik qilgan.

**1991-2000 yillarda** qabul qilingan muhim me’yoriy-huquqiy hujjatlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 1993-yil 7-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat uy-joy fondini xususiy lashtirish to‘g‘risida”gi qonun, O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrdagi “Davlat uy-joy siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 25-apreldagi “Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida aholiga kommunal xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 211-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-iyuldagi “Uy-joy-kommunal xizmatlarning o‘z xarajatlarini o‘zi qoplashiga bosqichma-bosqich o‘tish munosabati bilan normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida”gi 271-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 1-martda qabul qilingan Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 3-noyabrdagi 461-sonli “Ahолига kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Konsepsiya to‘rg‘isida”gi qarori bilan tasdiqlangan “Ahолига kommunal xizmat ko‘rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Konsepsiysi” hamda 1998-yil 24-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi qabul qilindi. Natijada, davlat uy-joy fondining asosiy qismi xususiy lashtirildi. Jumladan:

- umumiy maydoni 57 mln. m<sup>2</sup> bo‘lgan 990,6 ming kvartira shu kvartirada yashovchi fuqarolarga sotildi;
- umumiy maydoni 18,87 mln. m<sup>2</sup> bo‘lgan 318,7 ming xonodon bepul xususiy mulk qilib berildi<sup>3</sup>;
- Uy-joy fondidan foydalanishni boshqarishning turli shakllari tashkil etilib, sinovdan o‘tkazildi. Uy -joy mulkdorlari shirkatlari va o‘zini o‘zi boshqarish jamoatchilik organlari uy-joy egalari kengashlari shakllantirildi;

---

Darslik. Toshkent. 2012-y.

3 Yodgorov V.U., Butunov D.Ya. Uy-joy kommunal xo‘jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi. Darslik. Toshkent. 2012-y.

-uy-joy fondini boshqarishning huquqiy asoslari shakllantirildi hamda respublikaning uy-joy siyosati belgilandi.

**2001-2016 yillarda** xususiy uy-joy fondlaridan foydalanish va kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalarining xususiy tizimini tashkil etish bo‘ldi. Islohotlarni amalga oshirishning huquqiy asosi sifatida quyidagi hujjatlar qabul qilindi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 17-apreldagi “Kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichi to‘g‘risida”gi PF-2832-sون Farmoni;
- O‘zbekiston Respublikasining “Ahолига kommunal xizmat ko‘rsatishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2001-yil 18-apreldagi 178-сон qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 10-fevraldagи “Uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini takomillashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3-sonli qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 26-fevraldagи “Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyatini rivojlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3038-sonli Farmoni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 22-fevraldagи «Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati to‘g‘risida»gi qonuni va boshqalar.

Mazkur bosqichda ko‘p kvartirali uylarni boshqarish bo‘yicha uy-joy mulkdorlari shirkatlari tashkil etildi va ular faoliyati ommalashtirishga hamda uy-joy fondini saqlash xarajatlari mulkdorlar tomonidan qoplanishining tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi. Natijada, 2006-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra respublikada uy-joy mulkdorlari shirkatlarining soni 2188 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2009-yil 1-yanvar holatiga ularning soni 4751 tani tashkil etdi<sup>4</sup> (1-jadval).


Shuningdek, sohada boshqaruvni tubdan yaxshilash, uy-joy mulkdorlari shirkatlari maqomini, ularning tashkiliy va moliyaviy mustaqilligini, faoliyatining samaradorligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Aholi turmush farovonligini oshirishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida uy-joylarni qurish va foydalanishga topshirish ishlarining jadallahsuvi natijasida yillar davomida umumiy uy-joy fondi hajmi va shinamligi oshib bormoqda. 1991-yilda kishi boshiga o‘rtacha yashash maydoni  $12,4 \text{ m}^2$  ni tashkil etgan bo‘lsa, 2002-yilda  $14,3 \text{ m}^2$  ni, 2009-yilda  $14,7 \text{ m}^2$  ni, 2011-yilda  $15 \text{ m}^2$  ni va nihoyat 2017-yilda 1991-yilga nisbatan  $3,3 \text{ metr kvadratga}$  oshib,  $15,7 \text{ m}^2$  ni tashkil etdi<sup>5</sup> (1-rasm).

## **1-rasm. O‘zbekistonda kishi boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yashash maydonining o‘sish dinamikasi tahlili diagrammasi, ( $\text{m}^2$ )**

<sup>4</sup> Yodgorov V.U., Butunov D.Ya. Uy-joy communal xo‘jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi. Darslik. Toshkent. 2012-y.

<sup>5</sup> Rahimov Q.E. Uy-joy fondini boshqarish. Darslik. T.: TAQI, 2020-y. 234 bet.



**1-jadval.**

**2009-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra ko‘p qavatli uylarni UJMShlarga biriktirish holati tahlili**

№	Hududlar nomi	Mavjud ko‘p qavatli uylar soni	Shu jumladan UJMShlar boshqaruvidagi uy-joylar soni	UJMSh soni	Jumladan						Bitta UJMSh boshqaruvidagi o'rtacha uylar soni	UJMSh-lar boshqaruvidagi barcha xonadonlar soni	jumladan bitta UJMSh boshqaruvi-dagi o'rtacha xonadonlar soni	
					1 uyli UJMSh	2 uyli UJMSh	3 uyli UJMSh	4 uyli UJMSh	5 uyli UJMSh	6 uyli UJMSh va undan ortiq				
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1025	990	110	8	5	3	7	6	81	9	23635	215	
2	Andijon viloyati	1426	1182	143	15	10	12	6	17	83	8	34451	241	
3	Buxoro viloyati	1257	1249	120	23	2	8	1	3	83	10	38723	323	
4	Jizzax viloyati	1130	1130	103	3	5	12	4	12	67	11	20840	202	
5	Qashqadaryo viloyati	1722	1516	121	0	2	5	19	62	33	13	31769	263	
6	Navoiy viloyati	569	569	25	5	1	0	1	2	16	23	6644	266	
7	Namangan viloyati	1008	960	217	48	29	17	31	55	37	4	30827	142	
8	Samarqand viloyati	1459	1346	207	31	15	18	19	38	86	7	49369	238	
9	Surxondaryo viloyati	998	998	79	0	1	0	15	21	42	13	19077	241	
10	Sirdaryo viloyati	1192	1192	77	14	2	3	4	7	47	15	25332	329	
11	Toshkent viloyati	4561	3847	516	176	37	17	33	27	226	7	125999	244	
12	Farg‘ona viloyati	2724	2714	648	319	89	64	50	41	85	4	89117	138	
13	Xorazm viloyati	1047	1047	111	17	0	14	9	8	63	9	23180	209	
14	Toshkent shahri	9061	9061	2274	841	284	269	258	266	356	4	423881	186	
	O‘zbekiston Respublikasi	29179	27801	4751	1500	482	442	457	565	1305	6	942844	198	

O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 42-moddasida uy-joy maydonining ijtimoiy normasi belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra “... bir kishi hisobiga o‘n olti kvadrat metrdan kam bo‘lmaq umumiy maydon hajmida, kreslo-aravachada harakatlanadigan nogironlar uchun esa – yigirma uch kvadrat metrdan kam bo‘lmaq hajmda belgilanadi”. Demak, ikkinchi bosqich yakuniga kelib, respublikamizda kishi boshiga to‘g‘ri kelgan o‘rtacha yashash maydoni ( $15,7\text{ m}^2$ ) Uy-joy kodeksida belgilangan uy-joy maydonining ijtimoiy normasiga yaqinlashganligini ko‘rishimiz mumkin.

2017-yildan boshlangan davrda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PF-5017-sonli Farmoniga muvofiq Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi faoliyati yo‘lga qo‘yilishi natijasida respublikamizda uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi.

Uy-joy communal xizmat ko‘rsatish vazirligi tomonidan uy-joy communal sohada amalga oshirilayotgan ishlar holati o‘rganilganda, ko‘p kvartirali uylarni boshqarish sohasida ko‘plab muammolar yig‘ilib qolganligi, aksariyat shirkatlarning qarzga botganligi va ularning faoliyati qoniqarsizligi hamda uy-joy mulkdorlarining shirkatlar boshqaruvidan norozi ekanligi aniqlandi. Ko‘p kvartirali uylar boshqaruvidagi mavjud muammolarni aniqlash va to‘liq bartaraf etish, boshqaruv sifati va samaradorligini oshirish, sohagi islohotlarni tizimli amalga oshirish hamda tashkiliy-huquqiy asoslarni yaratish maqsadida bir qator me-yoriy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan:

1. Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2019-yil 7-noyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida”gi O‘RQ-581-sonli Qonuni qabul qilindi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-yanvardagi “Toshkent shahrining uy-joy communal infratuzilmasini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5-sonli qaroriga asosan Toshkent shahrining Yunusobod va Chilonzor tumanlarida ko‘p kvartirali uy-joy fondini professional boshqaruv kompaniyalari tomonidan boshqarish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

3. Ko‘p kvartirali uylarni boshqarishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ko‘p kvartirali uylarni saqlash bilan bog‘liq xarajatlar bo‘yicha hisob-kitob ishlarini yuritishda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash hamda aholiga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-yanvardagi “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi 67-sonli qarori qabul qilindi.

4. Ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, boshqaruv organlarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash hamda ko‘p kvartirali uy-joylarning umumiy mol-mulkini saqlash, undan samarali foydalanish va uni ta‘mirlash, ularga tutash yer uchastkasini obodonlashtirish ishlarining izchil amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi “Ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi

PQ-5152-sonli qarori qabul qilindi.

5. Respublikaning barcha hududlarida tadbirkorlikni rivojlantirish, ko‘p kvartirali uylarning yerto‘la qismlaridan foydalangan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktabrdagi “Ko‘p kvartirali uyning yerto‘lasidan foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 648-sonli qarori qabul qilindi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-yanvardagi “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish faoliyatini amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 3-son qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Uchinchi bosqichda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning amaliyotga tadbiq etilishi natijasida:

- ko‘p kvartirali uylarni boshqarishga shirkatlar bilan bir qatorda boshqaruvchi kompaniyalar keng jalb etildi (2-jadval);
- ko‘p kvartirali uylarni boshqarish qisman raqamlashtirilib, “Mening uyim” billing tizimi joriy etildi;
- ko‘p kvartirali uylardan, xususan uning yerto‘lalaridan samarali foydalanishning huquqiy asoslari yaratildi;
- ko‘p kvartirali uy-joylardan qonuniy foydalanish ustidan Uy-joy fondi inspeksiyasining doimiy nazorati o‘rnatildi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining 15 ta hududida ko‘p kvartirali uy-joylar joylashgan yerlarni ochiq tanlov o‘tkazish yo‘li bilan boshqaruvchi tashkilotlarga biriktirish bo‘yicha loyiha amalga oshirildi va tahlil natijalariga ko‘ra mazkur loyiha doirasida 1 227 ta ko‘p kvartirali uylarda istiqomat qiluvchi aholining yashash sharoitlari yanada yaxshilandi;
- boshqaruvchi tashkilotlarning kredit qarzdorligi 2 baravarga qisqardi, 500 nafarga yaqin ish o‘rinlari yaratildi, ishchilar ish haqi hamda boshqaruvchi tashkilotlar daromadi 2 baravarga oshdi va boshqalar.

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, respublikamizda oxirgi yillarda qabul qilingan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar natijasida 2022-yil 1-iyun holatiga ko‘ra respublikamizda Professional boshqaruv tashkilotlari soni 515 taga yetgan, shu bilan birga, shirkatlar soni kamayib 1380 taga tushgan. Ahamiyatli tomoni shundaki, professional boshqaruv kompaniyalari keng jalb etilgan hududlarda, ya’ni samarasiz faoliyat yuritayotgan shirkatlar boshqaruvidagi ko‘p kvartirali uylar boshqaruv kompaniyalar boshqaruviga o‘tkazilishi va tizimli ishlar amalga oshirilishi natijasida Toshkent shahri, Farg‘ona viloyati, Jizzax viloyati va boshqa bir necha hududlarda “og‘ir” toifali shirkatlar mavjud emas.

**2022-yil 1-iyun holatiga ko‘ra ko‘p qavatlari uylarni boshqaruvchi tashkilotlarga biriktirish va shirkatlarning holati tahlili<sup>7</sup>**

T/r	Hudud nomi	Pro-fes-sional boshqaruv tash-ki-lotlari soni	UJMSHLAR soni	Shundan shirkatlar toifalari bo‘yicha						Xonardon soni
				Yaxshi		O‘rta		Og‘ir		
Respublika bo‘yicha jami		Shirkat soni	uylari soni	Shirkat soni	uylari soni	Shirkat soni	uylari soni	Shirkat soni	uylari soni	
1	Qoraqalpo-g‘iston Respublikasi	515	1 380	620	3 867	481	3 571	279	2 179	1 334 390
		13	4	34	47	443	17	202	202	39022
2	Andijon viloyati	18	4	17	51	371	33	227	227	50 280
3	Buxoro viloyati	19	27	570	15	207	8	162	162	63 206
4	Jizzax viloyati	27	2	27	0	0	0	0	0	40 329
5	Qashqadaryo viloyati	41	13	163	14	367	7	148	148	53 552
6	Navoiy viloyati	29	31	439	5	220	0	0	0	73 550
7	Namangan viloyati	22	174	392	74	244	119	63	63	48 120
8	Samarqand viloyati	2	100	987	14	122	64	797	797	71 818
9	Sirdaryo viloyati	30	0	0	0	0	0	0	0	35 993
10	Surxondaryo viloyati	32	0	0	0	0	0	0	0	37 733
11	Toshkent viloyati	58	17	222	45	537	24	414	414	160 383
12	Farg‘ona viloyati	31	34	358	60	615	0	0	0	117 389
13	Xorazm viloyati	22	4	67	5	40	7	166	166	33 783
14	Toshkent shahar	171	210	591	151	405	0	0	0	509 232

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-fevraldagagi “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarishni takomillashtirish va kommunal xizmatlar ko‘rsatishni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 47-son qarori qabul qilindi. Qarorning ilovalariga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy communal xizmat ko‘rsatish vazirligining Uy-joy communal xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi maxsus hisobvarag‘i mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizom”, “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimiga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj ko‘p kvartirali uylardagi mulkdorlarga majburiy badalni to‘lash uchun subsidiya ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizom”, “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlarining elektron reestri hamda reytingini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizom”, “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish uchun boshqaruvchi tashkilotni yoki boshqaruvchini tanlash bo‘yicha ochiq tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom”lar tasdiqlandi. Natijada,

<sup>7</sup> [O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy communal xizmat ko‘rsatish vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan](#)

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining Uy-joy communal xo'jaligini rivojlantirish jamg' armasida ko'p kvartirali uylarni mukammal va joriy ta'mirlash ishlarini moliyalashtirish uchun maxsus hisobvaraq mablag'larini shakllantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj ko'p kvartirali uylardagi turar joylarning mulkdorlariga majburiy badalni to'lash uchun subsidiya ajratish, ko'p kvartirali uylarni boshqarish organlarining elektron reestri hamda reytingini shakllantirish va yuritish, ko'p kvartirali uylarni boshqarish uchun boshqaruvchi tashkilot yoki boshqaruvchini tanlash bo'yicha ochiq tanlov o'tkazishning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi.

Uy-joy sohasidagi qonunchilikning muhim asosi sifatida 1999-yil 1-apreldan amaliyatga joriy etilgan O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi 141 moddadan iborat bo'lib, uy-joy to'g'risidagi qonunchilikning assosini tashkil etadi. Mazkur Kodeksga amalga oshirilayotgan o'zgarishlardan kelib chiqqan holda qonun hujjatlari orqali o'zgartirishlar kiritib kelingan. Ushbu kodeksni yanada takomillashtirish borasida mas'ul organlar tomonidan tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

Kodeks (lotincha codex) ijtimoiy munosabatlarning muayyan bir turdag'i sohasini tartibga soluvchi sistemalashtirilgan yagona qonun hujjati hisoblanadi.

Mazkur qonun hujjati barcha uchun tushunarli, sodda tilda yozilgan bo'lishi va unda amalda keng qo'llanilayotgan terminlardan foydalanilishi hamda uy-joy sohasida amalda bo'lган qonunchilikni ifodalashi maqsadga muvofiqdir.

Shu ma'noda, Kodeksga kiritilishi mumkin bo'lган bir necha o'zgartirishlar to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, birinchi navbatda "kooperativ", "arenda", "munitsipal" iboralari bugungi kunda amalda foydalanilmayotganligini ko'rishimiz mumkin. Kodeksda "arenda" so'zi 121 marta qo'llanilgan, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 7-noyabrdagi "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida"gi O'RQ-581-son qonunida mazkur atama umuman ishlatilmagan, bundan tashqari, "kooperativ", "munitsipal" so'zlar ham ishlatilmagan. Shuningdek, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (1-jild: A-beshbalik/Tahrir hay'ati: M.Aminov, X.Boboev va boshqalar. – Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000.-736 b.)da "arenda" so'ziga izoh berilmagan.

Kodeksning 128-moddasida uy-joy mulkdorlari shirkati ta'rifi, tashkiliy shakli va faoliyati asoslari keltirilgan, lekin bugungi kunda ko'p kvartirali uylar boshqaruviga keng jalg' etilgan boshqaruvchi kompaniyalar haqida ma'lumot berilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi 24 yil avval qabul qilinganligi, o'tgan davr mobaynida ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa sohalarda ko'plab o'zgarishlar bo'lganligi va yangi me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligini inobatga olgan holda Kodeksni bugungi barcha foydalanuvchilar uchun tushunarli bo'lishini ta'minlash maqsadida yuqorida qayd etilgan atamalarni qayta ko'rib chiqish va tahrirlash maqsadga muvofiq. Masalan, "arenda" so'zlar o'rniga "ijara" so'zlarini kiritish, birgalikda qo'llanilgan hollarda "arenda" so'zini tushirib qoldirish taklif etiladi.

Shuningdek, Kodeksning 128-moddasidan keyin boshqaruvchi tashkilot

(boshqaruvchi kompaniya) ta'rifi, tashkiliy shakli va faoliyati asoslarini kiritish maqsadga muvofiq.

**Xulosa va tavsiyalar.** Maqlada so'z yuritilgan qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi natijasida quyidagilarga erishildi:

- ko‘p kvartirali uylarni boshqarish usullari va prinsiplari, ko‘p kvartirali uy boshqaruvi ishtirokchilarining vakolatlari, huquq va majburiyatlari aniq belgilandi;
- ko‘p kvartirali uylarni boshqarish tizimi shaffofligini ta’minlashga qaratilgan «Obod uy» elektron dasturi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi;
- xorijiy tajribalar asosida boshqaruv kompaniyalarini ko‘p kvartirali uylar boshqaruviga jalb etishning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratildi;
- boshqaruv kompaniyalarida 24 soat mobaynida faoliyat yuritadigan dispatcherlik va avariya vaziyatlarini bartaraf etish xizmatlari yo‘lga qo‘yildi;
- Uy-joy fondi inspeksiyasi tomonidan ko‘p kvartirali uylardan foydalanish holati o‘rganilishi va aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha tegishli choralar ko‘rilishi yo‘lga qo‘yildi;
- ko‘p kvartirali uylarni billing tizimi orqali boshqarish yo‘lga qo‘yilmoqda;
- ko‘p kvartirali uylarni mukammal va joriy ta’mirlash ishlarini amalga oshirishning moliyaviy manbalari aniq belgilandi;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj ko‘p kvartirali uylardagi mulkdorlarga majburiy badalni to‘lash uchun subsidiya ajratish tartibi joriy etildi;
- boshqaruvchi tashkilotlar va mulkdorlar o‘rtasida axborot almashish samaradorligini oshirish mexanizmlari takomillashtirildi.

Maqlada o‘rganilgan me'yoriy huquqiy hujjatlar uy-joy fondini professional boshqarishning me'yoriy-huquqiy va tashkiliy asoslarini tashkil etib, ularning amaliyotda to‘la-to‘kis qo‘llanilishi natijasida ko‘p kvartirali uylarni boshqarish tizimi samaradorligiga erishish mumkin. Shu bilan birga, Uy-joy kodeksining maqlada tahlil qilingan tegishli moddalariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilishi maqsadga muvofiq.

## Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 7-noyabrdagi “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida”gi O‘RQ-581-sonli Qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrdagi “Davlat uy-joy siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonuni

4. O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi 1998-yil 24-dekabr
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 15-iyuldagи “O‘zbekiston Respublikasida Kommunal xizmat ko‘rsatishni boshqarishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-617-son Farmoni
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 19-dekabrdagi «Kommunal xizmatni boshqarish tizimini yanada isloh qilish to‘g‘risida»gi PF-2791-sonli Farmoni
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5017-sonli Farmoni
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi “Ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-5152-sonli qarori
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 22-iyuldagи “O‘zbekiston Respublikasi Kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”ти 371-son qarori
10. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-iyuldagи “Uy-joy-kommunal xizmatlarning o‘z xarajatlarini o‘zi qoplashiga bosqichma-bosqich o‘tish munosabati bilan normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida”gi 271-sonli qarori
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 25-apreldagi “Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida aholiga communal xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 211-sonli qarori
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi, Ko‘pxonadonli uy-joy fondidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi hamda “Kommunxizmat” agentligi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 340-sonli qarori
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-yanvardagi “Toshkent shahrining uy-joy communal infratuzilmasini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5-sonli qarori
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-yanvardagi “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi 67-sonli qarori
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-fevraldagи “Toshkent shahrining Yakkasaroy tumani, Jizzax va Marg‘ilon shaharlarida O‘zbekiston Respublikasining “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida”gi qonuni normalarini aprobatsiya qilish yuzasidan huquqiy eksperiment o‘tkazish to‘g‘risida”gi 64-sonli qarori
16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktabrdagi “Ko‘p kvartirali uyning yerto‘lasidan foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

648-sonli qarori

18 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-yanvardagi “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish faoliyatini amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 3-son qarori

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-fevraldagi “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarishni takomillashtirish va kommunal xizmatlar ko‘rsatishni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 47-son qarori

20. Yodgorov V.U., Butunov D.Ya. Uy-joy communal xo‘jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi. Darslik. Toshkent. 2012-y.

21. Rahimov Q.E. Uy-joy fondini boshqarish. Darslik. T.: TAQI, 2020-y. 234 bet.

22. <https://lex.uz>

23. <http://kommunal.uz>

## RAQAMLI IQTISODIYOTNING KORXONA BOSHQARUV FAOLI-YATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRI

Dots.v.b., p.f.n. Saidaxmedova Dilafruz Saidbaxromovna

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va raqamli texnologiyalarning korxona boshqaruv faoliyatiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada raqamli korxona modeli tavsiya qilingan.

**Kalit so'zlar.** Raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, tadbirkorlik faoliyati, elektron tijorat, raqamli transformatsiya, raqamli korxona.

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль цифровой экономики в экономике страны и влияние цифровых технологий на управлеченческую деятельность предприятия. Также, в статье рекомендуется модель цифрового предприятия.

**Ключевые слова.** Цифровая экономика, цифровые технологии, предпринимательство, электронная коммерция, цифровая трансформация, цифровое предприятие.

**Annotation.** This article analyzes the role of the digital economy in the country's economy and the impact of digital technologies on the management activities of the enterprise. The article also recommends a digital enterprise model.

**Keywords.** Digital economy, digital technologies, entrepreneurship, e-commerce, digital transformation, digital enterprise.

Jahonda shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati, iqtisodiy siyosati va davlat boshqaruvi tuzilishini sifat hamda texnologik jihatdan tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, turli mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy hayotida raqamli texnologiyalarning tatbiq etish sur'atlarining turlichaligi, ular o'rtasidagi rivojlanish tafovutlarining yanada kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunga kelib, dunyoda «raqamli iqtisodiyot»ning o'sish sur'atlari deyarli 15,5 foizni tashkil etmoqda.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 2022 yil yakuniga kelib, global YaIMning chorak qismi raqamli sohada bo'lishi taxmin qilinmoqda. Bunday haroitda O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishini raqamli iqtisodiyotsiz tasavvur qilish qiyin. Lekin, xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi bo'yicha O'zbekiston 170 dan ortiq davlat ichida 103-o'rinni egallab turganini inobatga olsak, hali mamlakatimizda bu sohada o'z yechimini kutayotgan masalalar va hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalar ko'pligini ko'rsatadi.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida 2020-yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nom berish taklifi, tom ma'noda O'zbekiston hayotida global

taraqqiyotga hamohang ravishda tarixiy burilish davri boshlanganligini tasdiqlaydi. Shu munosabat bilan bugungi kunda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning ayrim elementlari muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, hujjatlar va kommunikatsiyalarni ommaviy ravishda raqamli vositalarga o'tkazish, electron tijoratni rivojlantirish, bank tizimini bosqichma-bosqich transformatsiya qilish, elektron imzoga ruxsat berish, shuningdek, fuqarolarning davlat bilan muloqot qilishini ham elektron platformalarga o'tkazish kabilar jadal amalga oshirilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot odatda, raqamli hisoblash texnologiyalari va IT asosida amalga oshiriladigan infratuzilma hamda aloqa tizimi bo'lib, barcha iqtisodiy jarayonlarni qamrab oladi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish darajasi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'lib, quyidagi mezonlar asosida belgilanadi:

- raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi;
- axborot kommunikatsiya texnologiyalari tarmog'iga kiritilgan investitsiyalar hajmi;
- elektron tijoratning rivojlanganligi;
- mamlakat xududining internet bilan ta'minlanish darajasi, aholining undan foydalanish qulayligi va internetning tezligi;
- tashkilotlarda AKT sohasi bo'yicha yetuk mutaxassislar bilan ta'minlanganligi va shu kabilar.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish O'zbekiston uchun nafaqat vaqtini tejash, balki ishlab chiqarish intensivligi va samaradorligini oshirish uchun ham zarur. Qolaversa, raqamli iqtisodiyot xufyona iqtisodiyot darajasini va ma'muriy buyruqbozlikni pasaytirib, tadbirkorlik sub'yeklari uchun katta qulayliklar yaratadi. O'z navbatida bu bandlik sektoriga ham ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, kelajakda quyidagi kasblar paydo bo'lishi mumkinligi, tadbirkorlik faoliyatining yangi ko'rinishlarini paydo bo'lishiga, raqamli transformatsiyaning jadallahuviga olib keladi:

- shaxsiy marka menejeri;
- virtual advokat;
- hokimiyat vakillari bilan muloqot platformasining moderatori;
- infostilchi;
- raqamli lingvist;
- muddatli broker;
- interfeys uslubchisi kabilar.

Shu o'rinda aytish joizki, hozirgi kunda "raqamli iqtisodiyot" atamasi bilan bir qatorda lug'atimizda «raqamli transformatsiya» atamasi ham tez-tez qo'llanilmoqda.

Raqamli transformatsiya (digital transformation) jarayoni deb, raqamli texnologiyalarni mavjud biznes-modellarni mukammallashtirish uchun ishlatishga hamda uning vositasida faoliyat samaradorligini oshirishga aytildi.

Bu jarayon doimiy asosda innovasion texnologiyalarni tadbiq qilishni ko‘zda tutib, butun iqtisodiyotning to‘laqonli raqamli transformatsiyasiga olib keladi.

Raqamli transformatsiya keng ma’noda raqamli texnologiyalardan foydalanishish asosida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning sifat jihatidan yangi darajasiga o‘tish jarayoni sifatida talqin etiladi. Ya’ni, sodda qilib aytganda, raqamli transformatsiya bu korxona yoki tadbirkorlik faoliyatining hozirgi holatidan “moslashuvchan” holatga o‘tish jarayonidir. Raqamli transformatsiya ob’yektlari sifatida raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida yaratilgan mahsulotlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq jarayonlar, faoliyati raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan odamlar va tizimlar alohida ajralib turadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarining butun ish siklini qayta ko‘rib chiqish zarurati tug‘iladi, jumladan, biznes jarayonlarini raqamlashtirish, platforma yechimlariga o‘tish, sun’iy intellektni joriy etish va shu kabi o‘zgarishlar korxona rahbari oldiga jiddiy vazifalar qo‘yadi. Hoh u davlat korxonasi bo‘lsin, hoh xususiy tadbirkorlik faoliyati bo‘lsin, raqamlashtirish sharoitida o‘z faoliyatini davom ettirishi va rivojlanishi uchun, boshqaruv faoliyatida raqamli transformatsiyalashuvni bosqichma bosqich amalga oshirishi zarur bo‘ladi.

Bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keskin kirib kelishi natijasida biznes sohasida raqobat muhitining kuchayishiga olib kelmoqda va jamiyatlarning yangi boshqaruv texnologiyalari va platformalarini yaratishiga turtki bo‘lmoqda. Davlat va jamiyat hayot tarziga raqamli texnologiyalarning kirib kelishi natijasida, korxona boshqaruvida yuzaga keladigan o‘zgarishlar quyidagi yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin (1-rasm):

**1. Iqtisodiy makromuhitning o‘zgarishi.** Daromad topishning yangi manbalarini paydo bo‘lishi va iste’molchilar pozitsiyasining o‘zgarishi natijasida, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘sisi kuzatiladi va shu vaqtning o‘zida, sanoatda bir qator qisqartirishlar yuzaga keladi.


**2. Aholining tadbirkorlikka moyilligini ortib borishi.** Bozorlarga kirish uchun to‘siqlarni kamayishi tufayli, aholining tadbirkorlikka moyilliги ortib boradi, masofaviy ta’lim olish imkoniyatining ortadi, tashqi muhit bilan o‘zaro aloqalarning yangi vositalari paydo bo‘ladi, bu o‘znavbatida, shaharlarda raqamli korxonalarining ko‘payishiga olib keladi.

**3. Personalga qo‘yiladigan talabning o‘zgarishi.** Xodimlar bilan ishlash tamoyillari va usullari ham o‘zgarib boradi, ya’ni, xodimlarning axborot texnolgiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarga, ish joyiga qo‘yiladigan talablar ham murakkablashib boradi.

**4. Menejment transformatsiyasi.** Raqamli biznesning boshqaruv jihatlarini, ya’ni menejerlar ishi tarkibidagi o‘zgarishlarni, ayniqsa, korxona transformatsiyasi jarayonida menejerning axborot bilan ishlashiga nisbatan qat’iy talablar qo‘yiladi.

## Raqamli korxona modeli

1-rasm



Umuman olganda, raqamli korxona modeli barcha klassik tashkiliy postulatlarga asoslanadi, ammo shu bilan birga tizimning ayrim ob'yektlarini o'zgartirishga ehtiyoj tug'iladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv ob'yektining uzlusiz ishlashini ta'minlash uchun asosiy biznes jarayonlarini bir xil raqamlashtirishga erishish zarur. Raqamli muhitda boshqaruv funksiyalarining takomillashishi natijasida boshqaruv yuki ham ortadi. Chunki, boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish jarayonida asosiy boshqaruv funksiyalarini ham yarim avtomatik tizimlarga joriy etish holati yuz beradi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyati sub'yektlarining raqamli texnologiyalar bo'yicha yuqori ko'nikmalarga ega bo'lishi va uni amaliyatda tadbiq eta olishlari muhim o'rin tutadi. Bu o'z navbatida, korxona menejmenti tizimida ishbilarmon doira vakillarini yangi sharoitlarga moslashtirishda innovatsion yechimlar, ko'plab ilmiy va va uslubiy yondashuvlar ishlab chiqishlarini taqozo etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi 2020-yil 24 yanvar
2. S.S.Gulyamov, R.H.Ayupov. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat asoslari. T.: TMI, Iqtisod-Moliya nashriyoti, 2020, 510 b.
3. Saidaxmedova D.S. O'zbekistonda startaplarni rivojlantirish istiqbollari. «ToshDTU xabarlari», №3, 2018 y, 229-235 b.

## INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA SANOAT

### KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATINI BOSHQARISH.

Norboyeva D.D,

Jizzax Politexnika instituti.

Iqtisodiyot va menejment

kafedrasi assistenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada innovatsion rivojlanish asrida korxonalarning ishbilarmonlik faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlarini har tomonlama o'rganish va tahlil qilish, ularning asosiy kamchiliklari va farqlarini ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** korxonalar, boshqaruvi, innovatsion rivojlanish, milliy iqtisodiyot.

## ПРОМЫШЛЕННОСТЬ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ

### УПРАВЛЕНИЕ ХОЗЯЙСТВЕННЫМ ОРГАНОМ ПРЕДПРИЯТИЙ.

Норбоева Д.Д.,

Джизакский политехнический институт.

Экономика и управление

ассистент кафедры

**Аннотация:** В данной статье представлено комплексное исследование и анализ теоретических аспектов управления бизнесом предприятий в эпоху инновационного развития, их основных недостатков и отличий.

**Ключевые слова:** предприятия, управление, инновационное развитие, национальная экономика.

## MANAGING THE ECONOMIC POTENTIAL OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE CONTEXT OF INNOVATIVE DEVELOPMENT

Norboyeva D.D,

Jizzax Politexnika instituti.

Iqtisodiyot va menejment

kafedrasi assistenti

**Abstract:** In this article, there is a comprehensive study and analysis of theoretical

aspects of business management of enterprises in the age of innovative development, revealing their main shortcomings and differences.

**Keywords:** enterprise, management, innovative development, national economy.

Jizzax viloyati hududida joylashgan sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarish va takomillashtirish uchun hududda fond bozorini rivojlantirish, foydali tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish va boshqalarni amalga oshirilishi davlat iqtisodiy-siyosatining hozirgi davrdagi dolzarb masalasi hisoblanadi.

Innovatsion rivojlanish sharoitida innovatsiyalarning ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik samaradorlikni oshirish va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Boshqaruv mexanizm elementlari tarkibidagi asoslardan biri tashkiliy munosabat hisoblanadi. Uni amalga oshirish natijasida mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha turdag'i korxonalarini boshqarish imkoniyatlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- Mahsulot sifatini oshirish va ixtisoslashtirishni kengaytirish;
- Innovatsiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish;
- Talab va taklif qonunlaridan kelib chiqqan holda, mahsulotga bo'lgan talabni kuchaytirish;
- Ishlab chiqarish quvvatlarini va jarayonlarini optimallashtirish;
- Korxonalarda ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish.

Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishini ta'minlab bera oladigan davlat siyosatini amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi uchun ancha murakkab, ayni vaqtida dolzarb va yechilishi muqarrar bo'lgan vazifalardan hisoblanadi. Agar an'anaviy ilmiy-texnik siyosati bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi bilimlarni va ilimlarni talab etibgina qolmasdan asosan yangi bilimlarni yaratishga va ulardan amaliyotda qisman foydalanishga qaratiladigan bo'lsa, aksincha innovatsion siyosatda esa, nisbatan mu-kammalroq yondashuv nazarda tutiladi, bunda bilimlarni yaratish bilan teng ravishda, ulardan amaliy foydalanishga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida sanoatni rivojlantirish birinchi navbatda, taraqqiyotning xomashyo yo'nalishidan innovatsiya yo'nalishiga o'tishi natijada butun iqtisodiyotda strategik muhim o'zgarishlarni amalga oshirilishi bilan bog'liq. Bunda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish ya'ni zamonaviylashtirish, kooperasiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Bugungi kunda milliy sanoatning tovarlar va xizmatlar jahon bozorida-gi qa'tiy raqobatga qo'shilishida ularning ilmiy-texnikaviy salohiyatini aks ettiruvchi innovatsiyalarning axamiyati beqiyos.

- ishlab chiqarishni boshqarish
- moliyani boshqarish
- innovatsiyalar tizimini bosahqarish

Iqtisodiy adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida ko'pchilik olimlar asosiy e'tiborni biznes faoliyatini boshqarishning ikkita asosiy jihatlariga qaratishi aniqlanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy boshqarish
- iqtisodiy faoliyat samaradorligini boshqarish.

Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning har bir yo'nalishi tegishli yuritish usullari bilan tavsiflanishi aniqlandi. Korxonani innovatsion texnologiyalar sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy boshqarish usullari qatoriga quyidagilar kiradi:

- xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;
- ijtimoiy tartibga solish;
- iqtisodiy hisob-kitob;
- balans usuli;
- moliyalashtirish usuli;
- narxlarni tartibga solish;
- qarz berish.

Sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarishni baholash reyting mezonlari

## 1-jadval

Reyting mezonlari	Ballar
<b>1. Innovatsion muhit</b>	<b>0-30</b>
Innovatsion korxona	0-10
Innovatsion salohiyat	0-10
Korxonaning raqobatbardoshlik darajasi	0-5
Ishlab chiqarish darajasi	0-5
<b>2. Ishchi xodimlar uchun ajratilgan kapital</b>	<b>0-15</b>
Korxonada band bo'lgan ishchilar soni	0-5
Ishchi xodimlarni mehnat salohiyati	0-5
Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarini bajargan xodimlar soni	0-5
<b>3. Innovatsion faoliyat natijadorligi</b>	<b>0-20</b>
Ilmiy ishlanma va takliflarni bajaradigan xodimlar soni	0-5

Ilmiy tadqiqot va ishlanmalar soni	0-5
Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan sanoat korxonalar soni	0-5
Sanoat korxonalari bo'yicha joriy qilingan texnologik innovatsiyalar soni	0-5
<b>4. Innovatsion faoliyat uchun sarflangan mablag'lar</b>	<b>0-15</b>
Ilmiy ishlanma va takliflar uchun xarajatlar	0-5
Marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar	0-5
Texnika-texnologiyalar uchun innovatsiyalarga xarajatlar	0-5
<b>5. Korxonaning iqtisodiy rivojlanish holati</b>	<b>0-20</b>
Innovatsion faol korxonalarning ulushi	0-5
Korxonaning rentabellik darajasi	0-5
Korxonaning mehnat unumдорligi darajasi	0-5
Korxonaning yalpi sanoat mahsulotlaridagi ulushi	0-5
<b>Jami</b>	<b>100</b>
<b>Reyting mezonlari</b>	<b>Ballar</b>

Innovatsion texnologiyalar va raqamlashtirish davrida ilmiy olimlar korxonalarning ishbilarmonlik faoliyatini boshqarish bo'yicha qarashlarning yetarli darajada rivojlan-maganligi bilan ajralib turadilar, chunki ular uning faqat ikkita asosiy jihatini ajratib ayta olishadi: ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruv va iqtisodiy faoliyat samaradorligini bosh-qarish usullari. Shuning uchun innovatsion rivojlanish asrida korxona ishbilarmonlik faoliyati darajasiga ta'sir etuvchi omillarni samarali baholay olishmaydi va korxona rahbarlari sifatli boshqaruv qarorlarini qabul qila olmaydi.

Korxona istiqbolini belgilashda o'zgarib borayotgan iqtisodiy ijtimoiy muhit talablariga moslashish kunsayin tadbirkorlik ilmining asosiy amaliy muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Istiqboliy o'zgarishlarning imkon boricha yuqori aniqlikda sezabilish, raqobat kurashida samarali uslublardan va shakllardan foydalanish borasidagi nazariy izlanishlar tez orada rivojlanayotgan korxonalarning amaliy tajribasiga aylanmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- Vcherashniy R., Suxarev O. Innovatsii — instrument ekonomicheskogo, razvitiya // Investitsii v Rossii. 2006. № 10. S.28.
- Voronin S.A. Nalogoooblojenie kak instrument stimulirovaniya innovatsiy. // «Obshestvennie nauki v Uzbekistane», №1, 2009g., s.29-34.
- Innovatsiya — dvijushaya sila kitayskogo obshchestva v sovremennoyu epoxu. // Ekonomist. № 4. 2008 g. S. 6.[www.openscience.uz](http://www.openscience.uz)
- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>
- To'xtayev Zayniddin Egamnazar o'gli. Шаги по повышению инвестиционной активности «Экономика и социум» №5(96)-1 2022 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru) 691-695

## САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА РИСКЛАРНИ БОШҚАРИШ

Үринбоев Д.

Жиззах политехника институти

«Иқтисодиёт ва менежмент»

Кафедраси асистенти

Annotatsiya Risklarни бошқариш ноқулай вазиятларнинг юзага келишини башорат қилиш ва улардан кейин салбий оқибатларнинг олдини олиш чораларини кўришдан иборат.

Kalit so'zlar. Корхонадаги риск, рискларни аниқлаш, бошқариш стратегияси, ўз активлар, қарз маблағлари.

## УПРАВЛЕНИЕ РИСКАМИ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Үринбоев Д.

Джизакский политехнический институт

Экономика и управление

ассистент кафедры

Аннотация: Управление рисками заключается в прогнозировании возникновения неблагоприятных ситуаций и принятии мер по предотвращению негативных последствий после них.

Ключевые слова: Риск на предприятии, идентификация рисков, стратегия управления, собственные активы, заемные средства.

## RISK MANAGEMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES

Үринбоев Д.

assistant of the department of  
Economy and Management,  
Jizzakh Polytechnic Institute

Abstract: Risk management consists in predicting the occurrence of unfavorable situations and taking measures to prevent negative consequences after them.

Key words. Risk in the enterprise, identification of risks, management strategy, own assets, debt funds.

Корхоналар турли миқёсда, турларда ва турли шароитларда фаолият юритадилар, шунинг учун ҳам ижобий, ҳам салбий оқибатларга олиб келадиган

рискли вазиятлар ва эҳтимолий ҳодисаларнинг бошланиши учун шунчалик турли сабаблар мавжуд. Корхонадаги риск доимо барқарор бозор муносабатларини амалга ошириш шарти билан бизнес юритиш билан боғлиқ бўлиб, у корхонанинг молиявий натижаларининг ҳажми ва ўзгарувчанлигига таъсир қиласи, ўз активларива қарз маблағлари нисбатини белгилайди[1].

Рискларни бошқариш ноқулай вазиятларнинг юзага келишини башорат қилиш ва улардан кейин салбий оқибатларнинг олдини олиш чораларини кўришдан иборат. Йўқотишлиар ва заарарлар ҳар хил шакл ва миқёсда, турли вақтларда, энг хилма-хил шароитларда, тадбиркорлик фаолиятининг мумкин бўлган салбий оқибатларини билмаслик ёки эътиборсизлик бўлган деярли ҳамма жойда намоён бўлиши мумкин. Ушбу фактни билиш тадбиркорлик рискларини оқилона ва тизимли таҳлил қилишга, уларни бошқариш усувларини ишлаб чиқиш учун рискларни мустақил таснифлаш ва баҳолаш учун зарур услугубий имкониятларни яратишга, умуман корхонанинг иқтисодий фаолияти самарадорлиги ва рентабеллигини оширишга ёрдам беради [2].

Рискларни бошқаришга замонавий ёндашувнинг асосий мақсади рискни минималдаражагатуширишэмас, балки унинг миқдорий ва сифат параметрларини оптималлаштириш, шунингдек, унинг ҳажмини аниқлаш контекстида режалаштириш воситаларидан фойдаланиш имкониятидир. Шу муносабат билан айтишимиз мумкинки, рискларни бошқаришни оптималлаштиришнинг самарали механизмини ишлаб чиқиш зарурати замонавий шароитларда долзарб ва аҳамиятли бўлибормоқда.

Рискларни бошқариш жараёни, замонавий рискларни бошқариш ёндашувлари нуқтаи назаридан, корхонадаги риск миқдорини оптималлаштириш бўйича кетма-кет ҳаракатларни амалга оширишнинг ўзига хос хусусиятлари билан боғлиқ бўлган бир қатор босқичларга бўлинishi мумкин.

Фикримизча, рискларни бошқариш тизимини шакллантириш шароитида корхонада рискларни бошқаришнинг қуйидаги асосий босқичларини ажратиш мумкин.

**1.** Мақсадни белгилаш ва ўрганилаётган объектнинг ташкилий тузилмасида рискларни бошқариш ўрнини аниқлаш.

Биринчи босқич рискларни бошқариш контекстида асосий мақсадларни белгилаш, мавжуд инфратузилма ресурсларини ҳисобга олган ҳолда рискларни бошқариш тизимини ишлаб чиқишида корхонанинг имкониятлари ва эҳтиёжларини аниқлаш билан тавсифланади. Амалда, биринчи босқич компаниянинг ташкилий тузилмасида рискларни бошқаришнинг институционал консолидацияси билан тавсифланади,


**2.** Корхонадаги рискларни аниқлаш ва иқтисодий-статистик таҳлил қилиш

Ушбу босқичнинг функционал аҳамияти ҳаётийлик циклининг маълум бир босқичида маълум бир корхонага хос бўлган рисклар тўғрисида зарур

маълумотларни қидириш ва қайта ишлаш билан боғлиқ. Таърифланган босқич қўшимча равишда иккита сегментга тузилиши мумкин:

- умумий қабул қилинган ва ўзининг меъёрий таснифига мувофиқ рискларни аниқлаш;
- иқтисодий фаолият жараёнида юзага келиши мумкин бўлган рискларни сифат ва миқдор жиҳатдан баҳолаш.

↓ Корхонада юқори сифатли рискларни бошқаришни таъминлаш учун рискнинг ҳаётийлик айланиш босқичини ҳисобга олиш керак (1-расм).



3. Муқобил усулларни таҳлил қилиш ва пайдо бўлган стратегия доирасида рискларни бошқариш усулларини йакуний танлаш асосида корхонада рискка таъсир қилиш усулларининг самарадорлигини таққослаш.

Рискни маълум даражаларда камайтириш, бошқаларга узатиш ёки сақлаб қолиш бўйича муайян чора-тадбирлар мажмуи танлагандан кейин, уларнинг корхона учун мувофиқлик даражаси бўйича қарор қилиниши лозим. Мувофиқлик даражаси етарли бўлса, таъсир этаётган рискнинг қолган қисми қабул қилинади ёки аксинча рискли вазиятдан қочиш мақсадга мувофиқ. Қабул қилинган қарорларнинг самарадорлик даражасини таҳлил қилиш ва корхонада рискларни бошқаришнинг асосий мақсадларини шакллантириш ёки ривожлантириш натижасида рискларни бошқариш бўйича илгари белгиланган мақсадларни такомиллаштириш имконини берадиган янги стратегия яратилиши керак [3].

4. Танланган стратегия контекстида рискларни бошқаришнинг танланган усулини амалга ошириш.

Ушбу босқичда ресурс базасини ҳисобга олган ҳолда рискларни бошқариш контекстида корхонанинг асосий мақсадларини созлаш ва мумкин бўлган чекловлартизимини қайта форматлашмуҳимролни ўйнайди. Корхонадарискларни бошқариш стратегиясини амалга ошириш жараёнида рискларни бошқариш хизмати мутахассислари қабул қилинган қарорларнинг самарадорлигини, уларни мумкин бўлган тузатишларни ҳисобга олишлари керак [4].

5. Рискларни бошқариш стратегиясини амалга ошириш учун ички

назоратни ташкил этиш.

6. Ўзгаришлар ва оқибатларнинг мониторинги, корхонанинг рискларни бошқариш тизимини янада такомиллаштириш.

Ўзгаришлар ва оқибатларни мониторинг қилиш босқичи ваколатли бошқарув қарорларини қабул қилиш зарурлигини ҳисобга олган ҳолда тизимга қайта алоқани таъминлайди. Ушбу босқич ўрганилаётган бошқарув жараёнининг динамик табиатининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда мулкчиликнинг ҳар қандай шаклидаги корхонада рискларни бошқаришнинг мослашувчанлигини самарали таъминлашга қаратилган.

## Адабиётлар рўйхати

[1]. Дорожкина Т.В., Крутиков В.К., Алексеева Е.В. Управление рисками. Учебно- методическое пособие – Калуга: Издательство «ВашДом». - 2014. – 233 с.

[2]. Воробьев С.Н. Управление рисками в предпринимательстве / С. Н. Воробьев, К.В. Балдин

– М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К». - 2013. – 482 с.

[3]. Зирченко Л. А. (2019) Совершенствование системы управления рисками в процессе развития предпринимательских структур. Дисс. канд. эконом. наук. – Санкт-Петербург, – 165 с.

[4]. Махмудова Н.Ж. Совершенствование системы управления рисками устойчивого развития производственных предприятий. Бюллетень науки и практики. 2022. Т. 8. №3. С. 324-331. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/>

[5]. То’xtayev Zayniddin Egamnazar o’gli. Шаги по повышению инвестиционной активности. «Экономика и социум» №5(96)-1 2022 www.iupr.ru 691-695 с

[6] То’xtayev Zayniddin Egamnazar o’g’li. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING AHAMIYATI. «Экономика и социум» №11 www.iupr.ru

## НОТИҚЛИК САНЬАТИДА НУТҚ ТУРЛАРИ: ЎТМИШ ВА БУГУН

Самигова Хушнуда Ботировна

ЎзДЖТУ профессори

Филология фанларидоктори (DSc)

kabsam@yandex.ru

**Аннотация.** Ушбу мақолада нотиқлик санати бўлган риторикага ҳос жиҳатлар чуқур таҳлил этилган. Шунингдек, риторикага оид айрим терминларнинг қисқача изоҳи келтирилган ҳолда нутқ матни устида ишилаш жараёнинг турли босқичлари кенг ёритилган.

**Калит сўзлар:** риторика, диалектика, эристика, софистика, хрия этос, пафос, логос

**Аннотация:** В данной статье глубоко анализируются специфические аспекты риторики, которая является категорией публичного выступления. Также подробно разъясняются различные этапы процесса работы над текстом выступления с кратким пояснением некоторых риторических терминов.

**Ключевые слова:** риторика, диалектика, эристика, софистика, христианский этос, пафос, логос.

**Annotation.** In this article, the specific aspects of rhetoric, which is a category of public speaking, are deeply analyzed. Also, various stages of the process of working on the text of the speech are explained in detail with a brief explanation of some rhetorical terms.

**Key words:** rhetoric, dialectic, eristics, sophistry, ethos, pathos, logos

Нотиқлик санъати илмий терминологияда риторика деб ҳам юритилади. Ушбу тушунча қадимдан жонли сўз санъатининг расмий нутқ кўринишини ифодалаб келган. Ҳозирги пайтда “риторика” сўзи нотиқлик санъатининг назарий асослари ҳақидаги фан деган маънони ҳам англатади. Шунингдек, нотиқлик санъатининг назарий асосларини ёритувчи илмий тадқиқот ва методик ишларда ҳам риторика атамаси қўлланилади<sup>□</sup>.

Демак, риторика дейганда, унинг икки маъноси назарда тутилади. Биринчиси – нотиқлик санъатининг асосларини ўрганувчи фан, иккинчиси эса – ҳар қандай ифодали ва таъсирчан нутқни илмий жиҳатдан ўрганувчи соҳа.

Кўйида аввал риторикага оид айрим терминларнинг қисқача изоҳини келтириб ўтишни жоиз деб биламиз.

Риторикада этос, пафос, логос каби терминлар мавжуд бўлиб, улар риториканинг асослари ҳисобланади. Булардан этос – сўзловчи нутқ сўзлаётгандаги шароитни

англатади. Яъни бунда нутқий вазият, жой, нутқ учун ажратилган вақт оралиғи назарда тутилади. *Пафос* дейилганды, сўзловчининг мулоқот жараёнидаги мақсади тушунилади. Ҳар қандай сұхбат, мулоқот ўз мақсадига эга бўлади. *Логос* эса – сўзловчи ўз нутқида қўллайдиган сўзлар, ибора ва гапларни ифодалайди<sup>1</sup>.

Демак, этос – бу нутқий вазият, пафос – нутқ мақсади ва маъноси, логос – лексик бирликларнинг ифодаси. Ушбу терминлар бир-бири билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, ҳар бири иккинчисини тўлдириб туради. Агар шу уч тушунча мулоқот жараёнида бир-бирига мутаносиблиқда ўз ифодасини топса, сўзловчи ва тингловчи орасида ўзаро мулоқот муваффақиятли даражада амалга ошади. Ю. Рождественский юқорида қайд этилган терминларни янада аниқроқ тушунтириш мақсадида ўз ишида мисоллар келтириб ўтади. Масалан, ғаройиб жонзотлар мамлакатига тушиб қолган Гулливер мамлакат эгаларининг тилларини билмаганлиги сабабли улар билан мулоқот қила олмайди, ўз фикрларини уларга етказиб бера олмайди. Бу вазиятда *логоснинг қанчалик* муҳим эканлиги муаллиф томонидан қайд этилади. Эртак қаҳрамонларидан бири бўлган Тентаквой мотам маросимида мутлақ вазиятга тўғри келмайдиган нутқ сўзлагани учун жазоланганлиги ҳолатини юқорида номи тилга олинган олим этосга мисол тариқасида келтириб ўтади. Мисолдан вазиятга кўра нутқ ноўрин сўзлангани англашилади. Учинчи терминга эса, изоҳ тариқасида Ю. Рождественский Франциск Асизкийнинг қушларга ваъз ўқиш ҳолатини келтириб ўтади. Францискнинг ваъз мавзууси қийин бўлмасада, қушлар унинг ваъзини эшитишга мойиллик билдиримайдилар. Натижада, нутқ мақсадини амалга оширишга ҳожат ҳам қолмайди. Бу эса автор томонидан пафосга ёрқин мисол тариқасида келтирилади<sup>2</sup>.

Юқоридаги мисоллардан маълум бўладики, “этос”, “пафос” ва “логос” тушунчалари орасида узвийлик, мувозанат сақлангандагина мулоқот самарали бўлади.

Риторикада *диалектика*, *эристика*, *софистика*, *хрия* каби терминлар ҳам мавжуд. *Диалектика* дейилганды, ҳақиқатга ойдинлик киритиш мақсадида баҳс олиб бориш жараёни назарда тутилади. *Эристика* – ҳар қандай шароитда ҳам баҳсларда ҳақ бўлиб чиқиши назариясидир. *Софистика* эса – баҳсда ютиб чиқиши мақсадида олдиндан ўйлаб қўйилган ёлғон фикрларни қўллаш ва ифодалаш деб изоҳланади<sup>1</sup>.

*Хрия* термини эса маълум бир мавзуда ифода этиладиган кичик бир нутқнинг кўриниши бўлиб, у: гап, сабаб, қарама-қарши фикр, солишириш, мисол, исбот, хулоса каби етти қисмни ўз ичига олади. О.В. Петров “*Бирор-бир ишини бошлишдан аввал яхшилаб ўйлаш керак*”, деган фикрга тингловчини ишонтириш мақсадида юқоридаги етти қисмни қамраб олган қўйидаги нутқий парчани мисол тариқасида келтиради<sup>2</sup>:

“*Бирор-бир ишини бошлишдан аввал яхшилаб ўйлаш керак* (гап). *Натижада, вақт тежсалади, бекорга вақт сарфланмайди* (сабаб). Албатта, ҳамма ҳам тез

1 Иномхўжаев С. Ноти лик санъати асослари. – Т.: Ўитувчи, 1982. – Б. 122.

2 Рождественский Ю.В. Введение в общую филологию. – М.: Добросовесть, 1979. – С. 69-70.

ва оқыл фикр юрита олмайды, лекин қилаётган ишиндеги түшүнмаган нарсалар борасыда чуқур ўйлаб олиш даркор (қарама-қарши фикр). Ўйламай иши бошлаган одам биринчи уринишдаёк муваффақиятсизликка учрайди, аксинча, ўйлаб иши тутган киши худди тажрибали саёхатчига ўхшайды (солишириши). Дунёдаги барча қашфиётлар мавжуд муаммо чуқур ўйлаб чиқылғандан кейин амалга оширилган (мисол). Қадимда ота-боболаримиз шундай деган: “Хар қандай ўйланмасдан бошланган буюк иши тез орада барбод бўлади”(исбот). Бирор-бир ишини бошлашдан аввал яхшилаб ўйлаш керак. “Аввал ўйла, кейин сўйла” деб бекорга айтмайдилар (хулоса).

Хриядаги мақсадни амалга оширишда талаффуз ва овоз тони нутқ таъсирчанлигининг янада ортишига олиб келади, деб ҳисоблаймиз.

Лекин машхур нотик Марк Туллий Цицерон эса, “Хар қандай нутқни тўрт, беш, олти, ҳатто, етти қисмга бўлиш мумкин, бу ҳар бир сўзловчининг ўзига боғлиқ бўлади”, деган қарашларни илгари суради<sup>3</sup>.

Ю. Рождественский, Н.Ф. Кошанскийлар риторика 2га: умумий ва ҳусусий риторикага бўлинини ўз тадқиқотларида қайд этиб ўтадилар. **Умумий риторика** ушбу соҳанинг бошланғич, асосий, умумий қонуниятларини, нотиқлик санъати назариясини ўрганинши ўзининг мақсади деб билади. **Ҳусусий риторика** эса, умумий риториканинг асосий қонуниятларига таянган ҳолда ҳар бир нутқ турини алоҳида ўрганади (масалан, маълум бир нутқ турининг мақсади, вазифаси, ютуқлари, камчиликлари ва бошқа жиҳатларига кўра ўрганади). Риториканинг ушбу қисми аниқ бир нутқий фаолиятнинг ушбу нутқ шароити ва амалиётидаги вазифасига кўра ўрганади. Масалан, ижтимоий ҳаётда зарур бўлган касбий соҳалардан – педагогика, тиббиёт, суд, бошқарув, тадбиркорлик, журналистика, сиёsat каби соҳалардаги нутқий фаолиятни ўрганади<sup>4</sup>.

Юқоридаги фикрлардан маълум бўладики, риторика нотик нутқининг тузилишини назарий жиҳатдан талқин қилиш ва нутқ турларини алоҳида ўрганиш билан шуғулланувчи соҳа ҳисобланади. Қуйида аввал умумий риторика ўрганувчи қонуниятлар борасыда, сўнг ҳусусий риториканинг ўрганиш обьекти бўлмиш нутқ турлари ҳақида сўз юритамиз.

Тадқиқотларда нутқ матни устида ишлаш жараёни турлича талқин этилган. Баъзи манбаларда ушбу жараён уч қисмдан, айрим манбаларда эса у беш қисмдан иборат деб талқин қилинади<sup>5</sup>. Ушбу жараёнлар риторика қонуниятлари деб ҳам юритилган. Матнлар устида ишлаш жараёнлари бир неча босқичдан иборат бўлиб, ҳар бир босқич риториканинг маълум қонуниятлари билан боғлиқ ҳисобланади. Бу босқичлар қуйидагиларни ўз ичига олади: 1) инвенция (*inventio*) – материални топиш ёки ихтиро этиш; 2) диспозиция (*dispositio*) – жойлаштириш; 3) элокуция (*elocutio*) – сўз билан ифодалаш, баён этиш ёки безаш; 4) меморио (*memoria*) – ёдлаш; 5) талаффуз қилиш (*pronuntiatio*) ёки талқин этиш (*actio*). Мазкур назария қадимги даврда Цицерон, Квинтилианлар ижодида

3 Үша манба. – С. 69-70.

4 Алексеев. Н.С., Макарова З.В. Ораторское искусство в суде. М.: Ленинград, 1989. – С. 11.

5 Петров О.В. Риторика . – М.: Проспект, 2006. – С. 64-67.

ишлаб чиқилған, ўрта асрлар ва янги даврда (Россияда Ломоносов ижодида) ривожлантирилиб, XIX асрда адабиёт назариясига қўшилиб кетган<sup>6</sup>.

*Материални топиш* дейганда, нутқ сўзлаш учун керакли бўлган маълумотларни тўплаш, аниқ бир мавзу бўйича турли манбалардан ахборот йиғиш назарда тутилади<sup>7</sup>. Мавзу аниқлангач, мавзуга тегишли бўлган ва уни ёритувчи факт ҳамда рақамларни ўрганиш, тўплаш жараёни амалга оширилади. Н.Ф. Кошанский<sup>8</sup>: “Материални топиш жараёни кишининг ақл ва диidi билан боғлик бўлади. Бир маънога, лекин турли шаклга эга бўлган гаплардан қай бирини қўллашни топиш ҳам маҳорат,” деб таъкидлайди.

Нутқ сўзлаш учун тўпланган маълумотларни маълум бир режа бўйича, мантиқий кетма-кетликда қўйиши, нутқнинг кириш қисмидан хulosасигача бўлган қисмларини тўғри тақсимлаб чиқиши жараёни жойлаштириши дейилади<sup>9</sup>. Бошқача қилиб айтганда, ушбу жараён нутқ композицияси масалаларини қамраб олади. Жойлаштиришга оид фикрлар С. Иномхўжаевнинг тадқиқотида батафсил ёритиб берилади<sup>10</sup>.

Нутқни чиройли ифодалаш учун керакли сўзларни танлаш, уларни грамматик жиҳатдан бир-бирига тўғри бириктириш, услубий фигуralар, мақол ва маталлар, цитаталардан ўринли фойдаланиш эса, баён этиши ёки сўз билан ифодалаши (безаш) жараёни деб номланади<sup>9</sup>. Баён қилиш воқеани, мавзуни батафсил айтиб, талқин қилишдан иборат. Баён қилишда аниқлик, ихчамлик ва ҳақиқатга яқинлик каби талаблар қўйилади. Сўз билан ифодалаш бу – фикрни ёзма шаклда баён этиш бўлиб, бунда нутқда тўғрилик, ёрқинлик, ўринлилик каби бир қатор хусусиятлар мужассам этилиши талаб қилинади<sup>10</sup>. Н.Ф. Кошанскийнинг ишларида ҳам юкорида қайд этилган фикрларни кузатиш мумкин<sup>□</sup>.

Тайёр бўлган матнни хотирага жойлаш, уни такрор ва такрор ўқиши, маълумотларни тўлиқ ўзлаштириб олиш жараёни эса ёдлаши, эслаб қолии деб аталади. Бу жараён ўзига хос эсда сақлаб қолишни ўргатувчи услублар амалга оширилади. Олимлар<sup>11</sup> ушбу жараённи тайёр нутқни репетиция қилиш ва талқин этиш жараёни деб номлайдилар.

Ва ниҳоят, *талаффуз қилиши* ёки *талқин қилиши* юкоридаги жараёнлар натижасининг амалиётда ифода этиб берилиши билан боғлик фаолият

6 Цицерон. Три трактата об ораторском искусстве. – М.: Наука, 1972. – С. 158.

7 Рождественский Ю.В. Теория риторики. – М.: Добросовесть, 1999. – С. 345; Кошанский Н.Ф. Риторика. – М.: Панорама, 2013. – С. 40; Дюбуа Ж., Мэнге Ф., Эделин Ф., Пир Ф., Клинкенберг Ж.М., Тринон А. Общая риторика. – М.: Прогресс, 1986. – С. 11; [www.com/forum/suboxone](http://www.com/forum/suboxone).

8 Иномхўжаев С. Ноти лик санъати асослари. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12 жилдли. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2004. Ж. 7. – Б. 336; Габуния З., Башиева С. Риторика как часть традиционной культуры. – ЭЛЬ-ФА, 1993. – С. 26.

9 Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12 жилдли. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2004. Ж. 7. – Б. 336.

10 Дюбуа Ж., Мэнге Ф., Эделин Ф., Пир Ф., Клинкенберг Ж.М., Тринон А. Общая риторика. – М.: Прогресс, 1986. – С. 11

11 Кошанский Н. Ф. Риторика. – М.: Кафедра, 2013. – С. 39-42.

хисобланади. Бунда тайёр бўлган нутқни оммага, тингловчига етказиб бериш назарда тутилади. Ушбу жараёнда сўзловчига аниқ талафуз, овоз ва қаддиқоматни ишлата олиш каби асосий талаблар қўйилади.

Юқорида келтирилган маълумотлардан аён бўладики, нутқ сўзлашга тайёргарлик кўриш жараёни ўзига хос, осон бўлмаган кетма-кет босқичларни босиб ўтишни талаб қиласди. Бу босқичлар, асосан, расмий нутқ сўзлаш жараёнига тайёргарлик кўриш фаолияти билан узвий боғлик бўлади.

И. Шведов эса юқорида қайд этиб ўтилган тайёргарлик кўриш жараёнини “эфект айсберга” деб номлаб, уларни худди сувда сузиб юрувчи катта муз бўлагига қиёслайди. Унинг айтишича, музнинг 7/8 қисми сувнинг тагида, фақат 1 қисмигина сувнинг юзида қалқиб туради. Материални топиш, жойлаштириш, сўзлар билан ифодалаш, ёдлашбу – риториканинг тингловчиларга кўринмайдиган, “сув тагидаги” энг қийин ва машаққатли, меҳнат талаб қилувчи қисмлари бўлса, таъсирchan ифодалаш эса сувнинг устидаги музнинг кўриниб турадиган қисмидир<sup>12</sup>.

Юқоридаги фикрлардан маълум бўладики, матн устида ишлаш жараёни нисбий тушунча бўлиб, у сўзловчининг маҳорати, билими ва меҳнати билан чамбарчас боғлик фаолиятдир.

Матнлар устида ишлаш жараёнида фикрларни таъсирchan ифода этишни энг асосий босқич деб ҳисоблаймиз. Нутқ ўзига хос таъсирчанликка эга бўлмаса, у тингловчига осонгина этиб бормаслиги табиий. Кашф этилган, жойлаштирилган, безалган нутқни, ҳаттоқи, ўқиб бера олмаслик, уни ёд олиб ҳам ифода этиб бера олмаслик ҳолатлари учраб туради.

Риторика бўйича билимга эга бўлишда икки вазифани мукаммал англаб этиш талаб қилинади. Биринчиси, нутқдаги энг керакли маънони англаб этиш, ўзига ва оммага заарли фикрлар, ғоялардан қочган ҳолда тез қарор қабул қилишдир. Иккинчи вазифа эса, фикрларни ихтиро қилиб, уларни шароитга мос ҳолда ифода этишдир. Икки вазифа ҳам маълум бир жамиятнинг нутқ маданияти доирасида амалга оширилиши даркор<sup>13</sup>. Риторикада тезкор қарор қабул қилиш жуда муҳим ҳисобланади. Чунки нутқ турли ва кутилмаган шароитларда ифода этилиши, қутилмаган тингловчиларга қаратилган бўлиши ҳам мумкин. Шу нуқтаи назардан тезлик билан, аникроғи, *оқилона тезкор фикр юритиши, зийраклик, зеҳнлилик* каби сифатлар риторикада жуда муҳим. Абу Наср Форобий таъбири<sup>14</sup> билан айтганда: “Зийраклик бу инсондаги тез фикрлилик, ўйлаган нарсани дарров топа олиш қобилияти бўлса, зеҳнлилик – бу бир-бирига зид келиб қолган турли фикрлар орасидан энг тўғрисини топа олиш, бирининг хатолигини қўрсатиб бера олиш, ноҳақини тўғрилаб мунозараларда энг ҳақ фикрни қўрсата олиш қувватидир”.

12 Ўша манба. – С. 69; Дюбуа Ж., Мэнге Ф., Эделин Ф., Пир Ф., Клинкенберг Ж.М., Тринон А. Общая риторика. – М.: Прогресс, 1986. – С. 11.

13 Иномхўжаев С. Ноти лик санъати асослари. – Т.: Ўитувчи, 1982. – Б. 134-135.

14 Дюбуа Ж., Мэнге Ф., Эделин Ф., Пир Ф., Клинкенберг Ж.М., Тринон А. Общая риторика. – М.: Прогресс, 1986. – С. 11

Маълумки, риторика ўзининг ривожланиш тарихи аввалида нутқнинг уч турида (сиёсат, суд ва дин тизимида) мавжуд деб тан олинган эди. Лекин бу қарашлар вақт ўтиши билан нотиқлик борасида маълумот берувчи айрим манбаларда инкор этилади. Масалан, Г.З. Апресян, С. Иномхўжаевлар риторика ижтимоий-сиёсий, академик, суд нутқлари, социал-маиший, диний, оммавий ахборот воситаларида янграйдиган нутқ турларида ҳам мавжуд деб ҳисоблаб, антик даврдаги қарашларни ўзгача фикрлар билан тўлдирадилар<sup>15</sup>. Қуйида риторикага оид нутқ турлари борасидаги маълумотларни келтиришда юқорида номлари қайд этилган олимларнинг ишлари асос қилиб олинди.

**Сиёсий-ижтимоий нутқ** конференциядаги ҳисобот маъruzаларини, сиёсий, дипломатик, митинг, ҳарбий ватанпарварлик, тарғибот, ташвиқот, илмий-оммабоп, сиёсий-ижтимоий, сиёсий-иқтисодий нутқларни ўз ичига қамраб олади.

**Академик нутқ** дейилганда, ўқув юртларидағи маъruzalар, илмий доклад, ахборот ва маълумотлар тушунилади. Академик нотиқлик ўзининг илмийлиги, юқсан талабчанлиги билан характерланади. Ушбу нотиқликнинг муҳим ҳусусиятларидан бири – илмий аргументацияларнинг кучлилiği ва уларнинг фан ё илм тармоғининг моҳиятини очиб беришга бағишиланганидир.

**Суд нотиқлиги** – қораловчи, жамоатчи-қораловчи, оқловчи ва жамоатчи-оқловчи ҳамда ўз-ўзини ҳимоя қилиш нутқларидан ташкил топади. Бу нутқ тури нотиқлик санъатининг қадимий турларидан ҳисобланади.

Мақтов, табрик (тост), юбилей, таъзия ёки мотам нутқлари **ижтимоий-маиший нутқ** ҳисобланади. Бу нутқ турлари ҳар хил маросим ва йифинлар билан узвий боғлиқ бўлади. Мажлис, анжуманларда табрик, мақтов нутқлари сўзланса, таъзия ва мотам нутқи кишилар ғамига ҳамдардлик билдириш учун сўзланади. Юбилей, туғилган кунлар, тўй-ҳашамлар, зиёфатларда эса табрик (тост) нутқлари сўзланади.

**Диний нотиқлик** эса хутба ва ваъз нутқларини ўз ичига олади. Хутба нутки жума ва ҳайит намозларида, шунингдек, катта диний маросимларда дин арбоблари томонидан сўзланадиган нутқдир. Ваъз нутқлари ҳам, асосан, масжидларда ва диний айёмлардаги анжуманларда сўзланиб, бу нутқ анча катта оммага мўлжаллангани сабаб динийлиги жиҳатдан хутбага қўра анча эркин.

**Оммавий ахборот воситалари нутқи** дейганда, газета, журнал, радио, ойнаижаҳонда янграйдиган оғзаки ва ёзма матбуот нутқи назарда тутилади.

А.Е. Михневич юқоридаги нутқ турларига **мунозара нутқини** ҳам киритади. Мунозара нутқи кенгаш, сұхбат, баҳс-мунозара, тортишув, симпозиум, савол-жавоб кечалари, матбуот анжуманларидаги нутқларни ўз ичига олади<sup>16</sup>.

Фалсафа бўйича жаҳон энциклопедиясида юқоридаги нутқ турлари бироз ўзгача тавсифланади. Биргина инсоннинг кўпчиликка қаратилган нутқи (илмий, сиёсий нутқлар), мажлис ва йиғилишлардаги, суд жараёнидаги нутқлар **ораторика деб номланади**. Биргина сўзловчининг маълум бир гурух тингловчилари билан

15 Иномхўжаев С. Ноти лик санъати асослари. – Т.: Ў итубчи, 1982. – Б. 136-137.

бир неча бор учрашиши чоғидаги нутқи (ваъзхонлик ҳамда ўқув семинарларидаги нутқлар) **гомилетика** деб аталади. Ушбу энциклопедия риторика **оддий сўзлашув нутқи**, яъни луқмалар ёки фикр алмашиш (икки киши ёки бир неча киши орасидаги оғзаки диалоглар), бир нечтагина кишига муайян маълумотни кетма-кетлиқда етказиш (миш-мишлар), халқ оғзаки ижодини ифодалайдиган нутқларда (чўпчаклар, латифалар, афсоналарни айтишда) ҳам ўз ифодасини топиши борасида гувоҳлик беради<sup>16</sup>.

Юқорида қайд этилган нутқлар ичидан икки киши ёки бир неча киши орасидаги оғзаки диалогларни тадқиқ қилишга эътибор қаратамиз. Қуйида диалоглар бўйича назарий таҳлилни амалга оширишни, у риториканинг ўрганиш обьекти сифатида талқин этилишини илмий асослаб беришни жоиз деб биламиз.

### Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. Алексеев. Н.С., Макарова З.В. Ораторское искусство в суде. М.: Ленинград, 1989. – С. 11.
2. Абу Наср Форобий. Рисолалар. – Т.: Фан, 1975. – Б. 110-111.
3. Апресян Г.З. Ораторское искусство.–М.: МГУ, 1972.–С. 62-63; Иномхўжаев С. Нотиқлик санъати асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – Б. 6.
4. Габуния З., Башиева С. Риторика как часть традиционной культуры. – ЭЛЬ-ФА, 1993. – С. 26.
5. Грицанов А.А. Всемирная энциклопедия. Философия. – М.: Современный литератор, 2001. – С. 865.
6. Дюбуа Ж., Мэнге Ф., Эделин Ф., Пир Ф., Клинкенберг Ж.М., Тринон А. Общая риторика. – М.: Прогресс, 1986. – С. 11;
7. Иномхўжаев С. Нотиқлик санъати асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – Б. 122.
8. Кошанский Н.Ф. Риторика. – М.: Панорама, 2013. – С. 40.
9. Михневич А.Е. Лекторнинг нотиқлик санъати. – Т.: Ўзбекистон, 1979. – Б. 13.
10. Петров О.В. Риторика . – М.: Проспект, 2006. – С. 64-67.
11. Рождественский Ю.В. Введение в общую филологию. – М.: Добросовесть, 1979. – С. 69-70.
12. Рождественский Ю.В. Теория риторики. – М.: Добросовесть, 1999. – С. 345.
13. Цицерон. Три трактата об ораторском искусстве. – М.: Наука, 1972. – С. 158.
14. Шведов И. Искусство убеждать. – Киев: Молодь, 1986. – С. 105.
15. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12 жилдли. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2004. Ж. 7. – Б. 336.
16. [www.com/forum/suboxone](http://www.com/forum/suboxone).

16 Кошанский Н.Ф. Риторика. – М.: Кафедра, 2013. – С. 98-127.

## TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING AHAMIYATI.

TUKHTAEV ZAYNIDDIN EGAMNAZAR UGLI

Jizzax politexnika instituti

Iqtisodiyot va menejment

Kafedrasi assistenti

**Annotatsiya:** Banklarning iqtisodiy mohiyatiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq Bank ishining asosiy yo'nalishlari depozit (omonat) qabul qilish, kreditlar berish va mijozlarga kredit - hisob xizmati ko'rsatishni amalga oshirish hisoblanadi.

**Kalit so'z.** Depozit qimmatbaho qog'ozlar banklar likvidlilik raqamli bank xizmatlari zamonaviy texnologiyalar kredit muassasalari.

## ЗНАЧЕНИЕ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.

TUKHTAEV ZAYNIDDIN EGAMNAZAR UGLI

Джизакский политехнический институт

Экономика и управление

ассистент кафедры

**Аннотация:** Уместно обратить внимание на экономическую сущность банков. Основными направлениями работы банка являются прием депозитов, кредитование и кредитно-расчетное обслуживание клиентов.

**Ключевое слово.** Депозит, ценные бумаги, банки, ликвидность, цифровые банковские услуги, современные технологии, кредитные организации.

## THE IMPORTANCE OF IMPLEMENTATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE ACTIVITIES OF COMMERSIAL BANKS

TUKHTAEV ZAYNIDDIN EGAMNAZAR UGLI

Jizzakh Polytechnic Institute

Economics and management

Department assistant

**ANNOTATION:** *Helping banks focus on their economic activities. The main areas of the bank's work are accepting deposits, granting loans and providing credit-account services to the movement.*

**Keyword:** Deposit, securities, banks, digital banking services, modern technology, credit system.

Shu o'rinda banklarning iqtisodiy mohiyatiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Banklar (lot. ansa - sarrof peshtaxtasi) kredit-moliya muassasalari, asosan, vaqtincha bo'sh pul mablag'larini toplash, korxonalarga va umuman pulga muhtojlarga kredit, ssuda berish, naqd pulsiz hisob-kitoblarini amalga oshirish, pul va turli qimmatbaho qog'ozlar chiqarish, oltin va chet el valyutalari bilan bog'liq operatsiyalarini bajarish va boshqalar bilan shug'ullanadi [1].

Bank ishining asosiy yo'naliishlari depozit (omonat) qabul qilish, kreditlar berish va mijozlarga kredit - hisob xizmati ko'rsatishni amalga oshirish hisoblanadi. Banklar kimmattaho qog'ozlarni saqlash, saqlashga o'tkazilgan qimmatbaho qog'ozlarni joriy boshqarish, birja topshiriqlarini bajarish, seyflarni ijara qilingan qimmatbaho qog'ozlarni joriy boshqarish, birja topshiriqlarini bajarish, seyflarni ijara qilingan qimmatbaho qog'ozlarni joriy boshqarish, birja topshiriqlarini bajarish, seyflarni ijara berish kabi pulli xizmatlar ham ko'rsatadi. Bu vazifalarni bajarishda tijorat banklarining raqobatbardoshlik mavqeini saqlab qolish va uni yanada kengaytirishga imkon beradigan yangi bank mahsulotlarini joriy etish va takomillashtirish kun tartibidagi dolzarb masala hisoblanadi. Tijorat banki – tijorat asosida bank faoliyati, ya'ni mablag'larni jalb qilish vakreditlarni taqdim etish, bank hisob - varaqularini ochish va uni yuritish hamda to'lovlarni o'tkazish kabi amaliyotlarni amalga oshiruvchi kredit tashkilotidir. Tijorat banklari - bo'sh pulga (jamg'armaga) ega va pulga muhtoj bo'lganlar o'rtasidagi vositachilardan biri hisoblanadi.

Olimlarning fikricha "banklarning asosiy maqsadi pul mablag'larini kreditorlardan qarz oluvchilarga va sotuvchilardan xaridorlarga o'tkazishdavositachilik qilishdir. Banklar moliyaviy bozor sub'ekti sifatida boshqa sub'ektlardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadi:

birinchidan, banklar uchun qarz majburiyatlarining ikki tomonlama almashtirish xarakterlidir (xosdir): ular o'zlarining majbu-riyatlarini (depozit) shakllantiradilar va jalb qilingan mablag'larni qarz majburiyatlariga, qimmatli qog'ozlarga (boshqalarning chiqargan qog'ozlariga joylashtiradilar;

ikkinchidan banklar o'zlariga yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi qat'iy belgilangan summa bo'yicha shartsiz majburiatlarni oladilar [2].

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra 2018-yilda 4225 nafar jismoniy shaxs masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan bo'lsa, 2021-yil 1-yanvar holatida ularning soni 13 748 nafarga yetdi. Mobil ilovalar sonining ko'payishi, QR-kod tizimining afzalliklari, eng asosiysi, aholida raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish bo'yicha savodxonlikning yaxshilanib borishi bilan bank tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'لامi ortib borayotganligini ko'rsatadi [3].

Tijorat banklari iqtisodiyotning "qon tomir tizimi" bo'lib, aholi va biznesning to'planib qolgan jamg'armalarini taqsimlash orqali iqtisodiyotni zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi. Bu vositachilik iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun zarur bo'lgan "yoqilg'i" bilan ta'minlaydigan omilidir hozirgi kunda rivojlangan mam-lakatlarda tijorat banklari investitsiya faoliyatining lokomotivlari rolini bajarmoqda. Zero, moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ro'y bergan vaziyatda bank-moliya tizimi faoliyati-

ni mustahkamlash va sifat jihatdan yaxshilash alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun ham O'zbekistonda mazkur tizimni rivojlantirish va ularning kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha biri-biridan muhim qarorlar qabul qilinmoqda, chora-tadbirlar ko'rilmoxda hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklari investitsiya faoliyatining lokomotivlari rolini bajarmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev respublikamiz zamonaviy bank tizimi haqida fikr yuritib, "Afsuski, bank tizimi raqamli texnologiyalarni qo'llash, yangi bank mahsulotlarini joriy etish va dasturiy ta'minotlar bo'yicha zamon talablaridan 10-15 yil orqada qolmoqda" [4] deb ta'kidlashi mamlakatimizda moliya-kredit tizimida amalga oshirish lozim bo'lgan muhim masala sifatida raqamli texnologiyalarni yanada rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni e'tirof etishimiz lozim.

Tijorat banklarining raqobatbardoshlikni ta'minlashida eng samarali yo'li mijozlarning unga bo'lgan ishonchini qozonish va ular uchun barcha qulayliklarni yaratish, shuningdek, xizmatlar turi, sifati va tezkorligini oshirish hisoblanadi. Banklar mijozlariga qulay, tezkor va masofadan turib xizmat ko'rsatish uchun bank interaktiv xizmatlarini joriy etishga, yangi texnologiyalardan foydalanishga yanada ko'proq ehtiyoj sezmoqdalar.

Zamonaviy texnologiyalar muntazam takomillashib borgani sayin, tabiiyki, sohaning qonunchilik asoslari ham mustahkamlanib boraveradi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldag'i "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni o'z vaqtida qabul qilingan hujjat ekani bilan g'oyat ahamiyatlidir [5]. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasida "2020-yil – Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinganligi, bu borada bank tizimi oldiga qator vazifalarni bajarishni keltirib chiqaradi [6].

Xususan, hozirgi vaqtda tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning 55-60 foizi davlat dasturlari asosida berilayotganligi, imtiyozli kreditlar ulushining ko'pligi, banklar depozit bazasining barqaror emasligi, inflyatsiya riskining yuqori ekanligi bu boradagi mavjud muammolarni hal etish zarurati va ahamiyatini oshiradi hamda ushbu yo'nالishda ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni talab etadi.

Markaziy bank huzuridagi bank va moliya-kredit sohasida axborot va kiberxavfsizlik tahdidlarining oldini olish hamda moliyaviy firibgarliklarga qarshi ta'sir choralarini ko'rish va tekshirish (FINCERT) markazi tashkil etiladi. Albatta, mijozlarning to'lov xizmatlari bozoriga bo'lgan ishonchini ta'minlash, firibgarlikka qarshi kurashish va ma'lumotlarni himoya qilishda axborot xavfsizligi masalalari e'tibor markazida bo'ladи.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida hududlarda tijorat banklarining barqarorligini ta'minlash va ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida quyidagi xulosalarni ilgari suramiz:

- hududlarda tijorat banklari resurs salohiyatini miqdor va sifat jihatidan

yaxshilash maqsadida depozit va omonatlarni jalg qilish bo'yicha faoliyatni raqamlashtirish;

- tijorat banklari moliyaviy resurslarini dastlab korxonalar faoliyatini qayta tiklashga yo'naltirish va raqobatbardoshligini oshirish;
- tijorat banklari moliyaviy resurs bazasini mustahkamlash uchun inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda qayta baholanadigan qimmatli qog'ozlar (obligatsiya, depozit sertifikati) emissiya qilish;
- tijorat banklarining korxonalarga investitsiya qilishi uchun o'rnatilgan cheklowlarni yumshatish va tijorat banklari investitsiya faoliyatini rivojlantirish uchun islom moliyasini joriy qilish;
- eng muhim, qishloq joylarida aholiga bank xizmatlaridan foydalanishda qulayliklar yaratish, bank infratuzilmalari va ko'rsatilayotgan xizmatlar turini kengaytirishda zamonaviy axborot texnologiyalarida foydalanish bank tizimining ustuvor vazifalari bo'lib qolishi kerak.

## Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1.Zoyirov Z. Iqtisodiyotga oid atamalar va tushunchalar izog'li lug'ati.- T.:2004 y. 75 bet.

2.Rashidov O.Yu., Alimov I.I.,Toymuxamedov I.R., Tojiyev R.R. Pul, kredit va banklar. Darslik.-T.: TDIU, 2008 y.-432 bet.

3.O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari [https://cbu.uz/oz/press\\_center/reviews/](https://cbu.uz/oz/press_center/reviews/)

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <https://president.uz/uz>.

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2018-yil 19-fevral.

6.O'zbekiston Respublikai Prezidentining "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 24.10.2019-yildagi PQ-4498-sон Qarori.

7. To'xtayev Zayniddin Egamnazar o'gli.Шаги по повышению инвестиционной активности «Экономика и социум» №5(96)-1 2022 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru) 691-695-bet.

**БОЖХОНА ХИЗМАТИ ХОДИМЛАРИ МЕХНАТИ ВА УНГА ҲАҚ  
ТҮЛАШ ТИЗИМИДА РАҶАМЛАШТИРИШНИНГ ОБЪЕКТИВ  
ЗАРУРАТИ**

(Божхона институти таълим жараёни ҳамда профессор –ўқитувчилари меҳнатини рейтинг баҳолаш ва рағбатлантиришнинг рақамлаштириш мисолида)

Давлат божхона қўмитасининг Божхона институти  
“Иқтисодий ва ижтимоий фанлар” кафедрасидоенти, PhD,  
божхона хизмати полковниги Каримжонова Мунаввар Ибрагимовна.

**Аннотация:** Ушбу мақолада мамлакатимизда таълим сифатини ошириш ҳамда таълим жараёнида замонавий ахборот технологияларини қўллашнинг аҳамияти кенг ёритиб берилган. Бу борада божхона органлари тизимига малакали кадрлар тайёрлашдаталимтехнологияларини түлиқрақамлаштириш масалаларини гочиб берилган. Шунингдек, Божхона институти мисолида таълим сифатини оширишда профессор-ўқитувчиларнинг меҳнатини рейтинг баҳолаш, мониторинг қилиш ва рағбатлантиришнинг автоматлаштирилган шаффоф механизmlарини яратиш борасидаги таклиф ва тавсиялар келтирилган.

**Калит сўзлар:** таълим тизими, таълим сифати, янги инновацион технологиялар, рақамли иқтисодиёт, инсон капитали, халқаро стандартлар, меҳнатни рейтинг баҳолаш, баҳолаш мезонлари, самарадорлик кўрсаткичлари, вақт меъёрлари, ўкув юклamasи, ўкув-услубий ишлар, илмий-тадқиқот ишлар, маънавий-маърифий ишлар, малака талаблар, рағбатлантириш, мотивация, миқдор ва сифат кўрсаткичлари.

**Аннотация:** В данной статье освещается важность повышения качества образования в нашей стране и использования современных информационных технологий в образовании. В связи с этим широко раскрываются вопросы полной цифровизации образовательных технологий при подготовке квалифицированных кадров для таможенной системы. Также приведены предложения и рекомендации по созданию автоматизированных прозрачных механизмов оценки, контроля и вознаграждения труда профессорско-преподавательского состава на примере Таможенного института.

**Ключевые слова:** система образования, качество образования, новые инновационные технологии, цифровая экономика, человеческий капитал, международные стандарты, рейтинговое оценивание работы, критерии оценки, показатели эффективности, нормы времени, нагрузка, методика обучения, научно-исследовательская, духовно-просветительская работа, квалификационные требования, мотивация, стимулирование, показатели качества и количества.

**Annotation:** This article highlights the importance of improving the quality of education in our country and the use of modern information technologies in the educational process. In this regard, the issues of full digitization of educational technologies in the training of qualified personnel for the customs system are widely disclosed. Also in improving the quality of education on the example of the Customs

Institute suggestions and recommendations on the creation of automated transparent mechanisms for rating, monitoring and incentives for the work of professors and teachers.

**Keywords:** education system, quality of education, new innovative technologies, digital economy, human capital, international standards, labor rating assessment, evaluation criteria, efficiency indicators, time norms, workload, teaching methods, research work, spiritual and educational work, qualification requirements, incentives, motivation, quantity and quality indicators.

## Кириш

Бугунги кунда таълим инсон фаолиятининг барча соҳаларига янги технологияларни жорий этиш, ракобатбардошлиликни ошириш, турмуш даражасини кўтаришнинг муҳим шартига айланиб бормоқда. Мамлакатимизда барча соҳаларда олиб борилаётган туб ислоҳотлардан асосий мақсад, Ўзбекистон Республикасини ривожланган давлатга айлантиришдир. Бу борада янги билимларни амалда қўллай оладиган, муйян қасб соҳасидаги инновацион имкониятлар қўламини тушуна оладиган кадрларга объектив зарурият ортиб бормоқда. Бунинг учун эса, жадал ислоҳотлар, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорини замонавий эҳтиёжларига мос юқори малакали кадрларни тайёрлаш ва илғор инновацияларни амалиётга тадбиқ этишдир.

Мамлакатимиз таълим тизимини рақамли иқтисодиёт, яъни ахборот технологияларисиз тасаввур қилиш қийин. Шу боис, бугунги кунда илғор хорижий тажрибаларни ўрганиш асосида ахборот технологиялари соҳасида, жумладан дастурий маҳсулотларни ишлаб чиқаришни янада ривожлантириш ва улар учун кулай шарт-шароитларни яратишни тақозо этмоқда.

Таъкидлаш жоизки, Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясининг учинчи йўналишидан келиб чиқиб, “ Рақамли иқтисодиётни асосий “драйвер” соҳага айлантириб, унинг ҳажмини камида 2,5 баравар оширишга қаратилган ишларни олиб бориш” борасида 25-мақсадда қўйидаги вазифаларни амалга ошириш жумладан, Бухоро вилояти Қорақўл туманида рақамли технологияларга ихтисослаштирилган алоҳида замонавий талабларга жавоб берадиган ахборот технологиялари соҳасида таълимдан ишлаб чиқаришгacha бўлган яхлит занжир яратишни кўзда тутувчи ИТ-Кластерлар фаолиятини йўлга қўйиш белгиланган.


## Таҳлил ва муҳокамалар.

Таълим тизимида рақамли иқтисодиётни қўллашдан аввал рақамли иқтисодиёт тушунчасини ёритиб олишимиз зарур бўлади. Рақамли иқтисодиёт - бу иқтисодий, ижтимоий ва бошқа алоқаларни рақамли технологияларни қўллаш асосида амалга ошириш тизимидир. Баъзида у интернет иқтисодиёти, янги иқтисодиёт ёки веб-иктисодиёт деган терминлар билан ҳам ифодаланади. 1995 йилда америкалик дастурчи Николас Негропонте – рақамли иқтисодиёт атамасини амалиётга киритди. Ҳозир бу истилоҳни бутун дунёдаги сиёсатчилар, иқтисодчилар, журналистлар, тадбиркорлар – деярли барча қўлламоқда. Давлатнинг рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йўлини

танлаганлиги ахборот технологиялари соҳасида ва умуман, электрон ҳужжатлар айланмаси соҳасида янги йўналишлар очиб беради. Рақамли технологиялар томон бурилиш бутунжаҳон интернет тармоғи ва сифатли алоқанинг ривожланишига сабабчиси бўлди.

Бежиз эмаски, мамлакатимизда 2020 йил – Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиёт йили, деб эълон қилинди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 2 мартағи “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиёт йилида амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-5953-сон Фармони қабул қилинган. Ушбу давлат дастурининг 5 та йўналиши бўйича илм-маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантиришдан кўзланган мақсад айниқса, ахборот технологиялари соҳасида инсон капиталини ривожлантириш, кадрларни тайёрлаш ва улар малакасини ошириш тизимини такомиллаштириш, давлат хизматларини рақамли шаклга трансформация қилишва ахборот экотизими ривожлантириш, давлат органлариваташкилотлари фаолиятининг очиқлиги ва шаффоғлигини таъминлаш шунингдек, иқтисодиётни барча тармоқларини рақамлаштириш ҳамда Олий таълим муассасаларида энг замонавий рақамли технологияларни қўллашдан иборат эди. Ушбу давлат дастури 284 та банддан иборат бўлиб, унда белгиланган вазифаларни амалга ошириш учун 18 171,4 млрд. сўм ва 10 301,5 млн. АҚШ доллари миқдорида маблағ сарфланган.

Таъкидлаш жоизки, бугунги кунда таълим тизимидағи туб ислоҳотларини негизида қўйидаги занжирли бўлган таълим тизими интеграциясини таъминлаш ва такомиллаштириш талаб этилади (1-расм).



**1-расм. Таълим тизими интеграцияси**

Мамлакатнинг инвестициявий жозибадорлиги ва халқаро майдондаги имиджини мустаҳкамлаш, давлат органлари ва ташкилотларида халқаро рейтинг ва индекслар билан ишлашнинг янги механизмларини жорий қилишни, шунингдек ОТМларида меҳнат бозорида рақобатбардош профессионал кадрларни тайёрлаш борасида Ўзбекистон Республикаси учун устувор бўлган халқаро рейтинг ва индекслар бўйича самарадорликнинг энг муҳим кўрсаткичлари (KPI—Key Performance Indicators) ишлаб чиқишни тақозо этмоқда.

Бу борада божхона органлари таълим тизимида халқаро-иқтисодий муносабатларнинг ривожланиш тенденциялари ва мамлакат инвестициявий жозибадорлигининг ошиб боришини ҳисобга олган ҳолда, божхона органлари кадрларини касбий тайёрлаш тизимини такомиллаштириш мақсадида бир қатор Фармон ва Қарорлар қабул қилинди.

Жумладан, божхона органлари кадрларини касбий тайёрлаш тизимини такомиллаштириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси божхона органлари кадрларини тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3995-сон қарори қабул қилинди. Ушбу қарорда Божхона институти олдига қўйидаги:

- мамлакатни модернизация қилиш, ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан барқарор ривожлантириш учун юқори малакали кадрлар тайёрлаш сифатини ошириш, инсон капиталини меҳнат бозори талаблари асосида ривожлантириш;

- божхона иши ҳамда божхона органлари ходимларини тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш соҳасида илғор хорижий тажрибани ўрганиш; -рақамли иқтисодиёт учун юқори малакали муҳандис-техник кадрлар тайёрлаш тизимини ташкил этиш;

- божхона органлари ходимларининг касбий маҳоратини ривожлантириш ва такомиллаштиришни учун, уларни қайта тайёрлаш ва малакасини оширишнинг ягона тизимини ташкил этиш;

- курсантларда таҳлилий фикрлаш, янги билимларни мустақил равишда эгаллаш ва уларни амалиётда қўллаш кўнукмасини ривожлантиришга йўналтирилган, замонавий таълим стандартларини ва сифат жиҳатдан янгича ўқитиш тизимини жорий этиш;

- ўқитишининг замонавий инновацион шакл ва усуллари, педагогик ва ахборот-коммуникация технологиялари асосида ўқув жараёнини ташкил этиш, назарий тайёргарлик ва божхона органларининг амалий фаолияти билан боғлиқликни таъминловчи амалиёт ўташ каби вазифаларни амалга ошириш белгиланди.

Бу борада институтнинг ахборот технологиялари ва моделлаштириш маркази томонидан- “Е-таълим” дастури яратилди ва ушбу дастур орқали божхона курсантлари учун масофавий ўқитиш жараёни ташкил этилди. Шунингдек, Божхона институтида ўқув жараёнини рақамлаштириш борасида “Web-Portal” ахборотлаштирилган тизим дастури ишга туширилди ва натижада курсант ва тингловчиларнинг ўқув жараёнларини назорат қилиш, баҳолаш ва оралиқ назорат ва якуний назоратларни қабул қилиш ва уларнинг натижаларини аниқлашнинг шаффоф механизми яратилди.

Бироқ, бугунги куннинг долзарб вазифалари шуни тақозо этмоқдаки, яъни Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистонинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармонинг “Олий таълим билан қамров қамров даражасини 50 фоизга етказиш ва таълим сифатини ошириш” бўйича 46-мақсадида 2022 йилда ёшларни олий таълим билан қамров даражасини 38 фоизга етказиш, тўлов-контракт асосида ўқишига қабул қилиш параметрларини

олий таълим муассасалари томонидан мустақил белгилаш тартибини жорий этиш, 2026 йилда қабул кўрсаткичини камида 250 мингга етказиш, Давлат олий таълим муассасаларига академик ва молиявий мустақиллик бериш, шу жумладан улар томонидан меҳнатга ҳақ тўлаш, ходимлар сони, тўлов-контракт микдори ва таълим шаклини мустақил белгилаш амалиётини йўлга қўйиш, Давлат олий таълим муассасаларининг тегишли ҳукуқ ва ваколатларини аниқ белгилаш вазифалари белгиланган.

Бу борада божхона органларида ҳам туб ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Айниқса, Мухтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев Миромонович томонидан жорий йилнинг 17 феврал кунидаги “Божхона тизимини ислоҳ қилиш ва коррупциядан холи соҳага айлантириш масалалари бўйича” йиғилишдаги маъruzalariда божхона хизматини рақамлаштиришни 2022 йил мобайнида 70 фоизга, 2023 йилда 100 фоизга етказиш ҳамда божхона ходимларининг фаолияти самарасига қараб, иш ҳақига 50 фоизгача қўшимча устама ҳақ тўлаш шунингдек, ушбу устамалар аниқ кўрсаткичлар (KPI) асосида белгиланиши таъкидлаб ўтилган.

Божхона органлари тизимида ходимлар меҳнати ва унга ҳақ тўлаш ҳисобини бухгалтерия ҳисобида юритишнинг ўзига хос хусусиятлари ва мураккаб жиҳатлари мавжуд бўлиб, улар фаолияни хизмат натижаларига кўра рейтинг баҳолаш орқали устама ва қўшимча ҳақлар белгилаш ва тўлашни тақозо этмоқда. Бу эса тизимда шаффоф меҳнатга ҳақ тўлаш тизими жорий этиш учун рақамлаштирилиш орқали эришиш асосида коррупцияни олди олиниши таъминланади.


Шунингдек, ходимлар ўртасида соғлом рақобат ҳамда хизмат фаолияти самарадорлиги ортади, бухгалтерия ҳисобида меҳнатга ҳақ тўлашнинг осон ва харажатлари камайишига олиб келади.

Божхона маъмуриятчилигини янги босқичга олиб чиқиш, божхона ва юқ операцияларини рақамли трансформация қилиш орқали инсон омилини кескин қисқартириш, божхона соҳасини очиқлик, шаффофлик ҳамда ишончлилик тамойиллари асосида коррупциядан ҳоли тизимга айлантириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 апрелдаги “Божхона маъмурчилигини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги 122-сон Фармони қабул қилинган. Ушбу фармонга асоссан тасдиқланган 4-иловаси “Божхона органларини коррупциядан ҳоли тизимга айлантириш” дастурига кўра қуйидаги вазифаларни амалга ошириш белгиланган:

- ✓ кадрларни очиқлик ва шаффофлик тамойиллари асосида танлаш, божхона органлари ходимларининг даромадлари ҳамда мол-мулки деклорациялаш тартибини ишлаб чиқиш,
- ✓ божхона органлари ходимлари фаолиятини рейтинг асосида (KPI) баҳолаш орқали уларни рағбатлантириш тизимини жорий этиш,
- ✓ Давлат божхона қўмитасининг ҳудудий бошқармалари ва Божхона институти ходимларидан иборат таркибда мобил гурухлар тузган ҳолда постларда сайёр ўқув машғулотларини ўтказиш ва ходимларни билим савияларини баҳолаш.

Шунингдек, божхона постларини ихтисослашувидан келиб чиқиб, ходимларни ўқитиши ва уларнинг малакасини ошириш тизимини қуйидаги занжир асосида

амалга ошириш (2-расм).



## 2-расм. Божхона органлари ходимлари малакасини ошириш тизими интеграцияси

Давлат божхона қўмитасининг Божхона институти божхона органлари тизимида малакали мутахассис кадрлар тайёрлаб берувчи асосий таълим муассасаси ҳисобланади. Институт юридик шахс бўлиб, алоҳида мол-мулқ, мустақил балансга эга, ўз мажбуриятлари бўйича тасарруфидаги пул маблағлари ва мол-мулки билан жавобгар ҳисобланади.

Божхона институтида бакалавриат бўйича “Божхона иши” ва “Юриспруденция (иқтисодий хавфсизликни ҳуқуқий таъминлаш)” мутахассисликлари бўйича таълим муддати 4-йил, иқтисодчи ва юрист малакалари бўйича кадрлар тайёрланади. Магистратура йўналиши бўйича кундузги таълим муддати 1 йил бўлган “Божхона иши (фаолият турлари бўйича)” мутахассислиги бўйича иқтисодиёт магистри малакаси ҳамда “Солиқ ва божхона ҳуқуқи” мутахассислиги бўйича ҳуқуқ магистри малакаси асосида кадрлар тайёрланади.


Ушбу кадрларни тизимга тайёрлашда албатта биринчи навбатда профессор-ўқитувчилардан юқори савия ва ўз устида доимий изланиш ҳамда катта масъулият талаб этади.

Божхона институти профессор-ўқитувчиларининг хизмат фаолиятлари бошқа фуқоролик олий таълим муассасалари фаолиятидан фарқланади. Божхона институти Давлат божхона қўмитасининг таркибий тузилишига киритилган (3-расм).

### Хулоса ва таклифлар

Бизнинг фикримизча, ушбу фармон ва қарорларнинг қабул қилиниши билан божхона органлари ходимларининг меҳнатига ҳақ тўлаш тизимини моддий жиҳатдан рағбатлантириш учун тубдан ислоҳ қилишга асос бўлди. Бу эса, ўз навбатида божхона органлари ходимларини моддий жиҳатдан рағбатлантиришга, тизим самарадорлигини оширишга ва коррупция ҳолатларини олдини олиш ва бартараф этишга олиб келди. Божхона институтида профессор ўқитувчиларнинг моддий жиҳатдан бундай қўллаб қувватланиши эса илмий салоҳиятни оширишнинг асосий йўналишига айланмоқда. Божхона институтида ҳозирги кунда жами профессор ўқитувчилардан қарийиб 50 фоизи илмий даража ва илмий унвонга эга бўлган ходимлар ташкил этади. Бу борада профессор ўқитувчиларнинг ўз устида ишлаш, амалий тажрибага эга бўлиш ҳамда илмий салоҳиятини ошириш учун харакатлар жонланганига амин бўляяпмиз, чунки ҳар бир пухта ўйланган ва тузилган режа топшириқларни, вазифаларни сифатли амалга ошириш моддий маблағларга бориб тақалишини ҳаммамиз яхши биламиз.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ДАВЛАТ БОЖХОНА ХИЗМАТИ  
ОРГАНЛАРИНИНГ ТАШКИЛИЙ ТУЗИЛМАСИ**



**3-расм.** Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона хизмати органларининг ташкилий тузилмаси<sup>1</sup>

Юқоридаги келтирилган маълумотлардан кўриниб турибдики, божхона хизмати ходимлари меҳнатини ҳисобга олиш ва уларга ҳақ тўлашнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд бўлиб, бухгалтерия ҳисобини юритишда мураккаб жараён ҳисобланади. Шубоис, бизнинг фикримизча улар меҳнатига ҳақ тўлашда қўшимча ва устама ҳақларнинг белгилаш ва тўлашнинг шаффоф автоматлаштирилган механизмини яратишни тақозо этади.

Бироқ, нафақат Божхона институтида балки барча Олий ҳарбий таълим муассасасида ҳар бир профессор-ўқитувчининг меҳнат фаолияти турлича бўлишидан қатъий назар, уларнинг фаолият самарадорлигини баҳолашнинг шундай тизимли усулини топиш зарурки, бунда ҳар бир ходимнинг фаолиятига тўғри, аниқ сифатли рейтинг баҳо бериш ва шу асосда унинг меҳнат фаолиятини рағбатлантириш имконияти мавжуд бўлсин.

Бу вазифани эса, Олий ҳарбий таълим муассасалари профессор-ўқитувчилари фаолияти самарадорлигини баҳолаш асосида уларнинг меҳнатини рағбатлантиришнинг автоматлаштирилган ахборот тизимини ишлаб чиқиши (дастурий маҳсулот) орқали ижобий ҳал этишимиз мумкин.

Бунинг учун Олий ҳарбий таълим муассасаси, жумладан Давлат божхона қўмитасининг Божхона институти профессор-ўқитувчиларининг фаолият самарадорлигини баҳолашнинг қўйидаги йўналишлари бўйича баҳоловчи мезон кўрсаткичларини ишлаб чиқиши мақсадга мувофиқ (4-расм)

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 10 сентябрдаги “Божхона тартибтаомилларини соддалаштириш ва давлат божхона хизмати органлари ташкилий тузилмасини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-6310 сон фармони асосида муаллиф ишланмаси.



**4-расм. Божхона институти профессор-ўқитувчилари фаолияти самарадор-лигини баҳолашнинг йўналишлари<sup>2</sup>**

#### Натижада:

- профессор-ўқитувчилар томонидан олиб борилаётган таълим-тарбия ва илмий-тадқиқот фаолиятга умумий баҳо берилади;
- ҳар бир профессор-ўқитувчига юклатилган вазифалар қай даражада ижро этилаётганини кузатилади;
- профессор-ўқитувчилар мөхнатини рағбатлантиришнинг шаффофф механизмини яратилади;
- профессор-ўқитувчиларнинг жамоа бўлиб биргалиқда фаолият олиб боришлари асосида ғаолияти самарадорлигига янада ортиши таъминланади.

Шунингдек, ҳар бир Олий ҳарбий таълим муассасасининг рейтинг баҳолашнинг шаффофф механизми яратилади, профессор-ўқитувчилар мөхнатини ҳисобга олиш ва рағбатлантиришда тўлиқ рақамлаштиришга эришилади.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017 — 2021 йилларда ўзбекистон республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили”да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-5953-сон Фармони.2020 йил 2 март.

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Божхона тартиб-таомилларини соддалаштириш ва давлат божхона хизмати органлари ташкилий тузилмасини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-6310-сон Фармони. 2021йил 10 сентябрь.

3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистонинг таракқиёт стратегияси тўғрисида”ги

<sup>2</sup> Маълумотлар асосида муаллифлар ишланмаси.

ПФ-60-сон Фармони. 2022 йил 28 январь.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Божхона маъмурчилигини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги 122-сон Фармони. 2022 йил 27 апрель.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси божхона органлари кадрларини тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3995-сон Қарори. 2018 йил 2 ноябрь.

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлис палаталарига қилган Мурожаатномаси.2020 йил 24 январь.

7. Шаҳноза Соатова. Адлия вазирлиги масъул ходими. “Лицензиялар бекор бўляпти: бу бизга нима беради?” мавзусидаги мақола <https://www.minjust.uz/uz/press-center/news/100435/>.

# IMIDJ TUSHUNCHASI NIMA?

Shohinur Mirzayev – UzJOKU,

Noshirlik yo‘nalishi magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Brend imidji: tushunchasi va determinantlari brendni yaratish va uning imidjini saqlab qolish kerak kabi savollarga javob qidiriladi.

**Kalit so’zlar.** Imidj, intellektual faoliyat, ishchanlik obro’si, plagiat, Butunjahon mualliflik huquqi konvensiyasi.

**Аннотация.** В этой статье будут рассмотрены ответы на такие вопросы, как имидж бренда: понятие и детерминанты создание бренда и поддержание его имиджа.

**Ключевые слова.** Имидж, интеллектуальная деятельность, деловая репутация, плагиат, Всемирная Конвенция об авторском праве.

Bizning jadal rivojlanayotgan axborot va multimedia texnologiyalari va shaxsiy muvaffaqiyat uchun umumiy poyga dunyomizda **imidj** kabi tushuncha allaqachon mustahkam kirib borgan. **Imidj nima?** Imidjning ko’plab ta’riflari mavjud. Ushbu maqolaning maqsadlari uchun biz ensiklopedik lug’atlardan birida berilgan tasvirning ta’rifiga e’tibor qaratamiz. Imidj (ingliz tilidan. image - “image”, “image”) — ommaviy yoki individual ongda ommaviy muloqot va psixologik ta’sir vositasida shakllangan sun’iy obraz. Obyektga nisbatan ommaviy ongda ma’lum munosabatni shakllantirish uchun imidj (targ’ibot, reklama orqali) yaratiladi. U ob’ektning haqiqiy xususiyatlarini ham, mavjud bo’lmagan, atributlangan xususiyatlarini ham birlashtirishi mumkin. **Ushbu xorijiy so’zdan foydalangan holda, biz ko’pincha u bilan individuallashtirishning ma’lum bir vositasini, intellektual faoliyat ob’ektini, intellektual faoliyat natijalariga bo’lgan mutlaq huquqlar to’plamini, shuningdek ularga tenglashtirilgan ba’zi boshqa ob’ektlarni tushunamiz.** fuqarolik muomalasi ishtirokchilarini va ular ishlab chiqaradigan mahsulotlarni (ishlar, xizmatlar) individuallashtirish vositalari. Ommaviy axborot vositalari tizimining inqilobiy rivojlanishi natijasida axborot makonining kengayishi va o’zgarishi, axborot, nomoddiy obyektlar va nomulkiy huquqlarning mazmuни, ta’siri va qiymati sezilarli darajada o’zgardi. Bu jarayon tasvir kabi kontseptsiyaga ta’sir qilmasligi mumkin emas edi. Yaqin-yaqingacha imidj muammolari - insонning boshqalarga qo’yadigan taassurotlari, ehtimol, faqat uning qarindoshlari, do’stlari va psixologlarini qiziqtirardi. Zamonaviy haqiqatda tasvirning ahamiyati ko’p marta oshdi. Mashhur odamlarning qiyofasi ular oladigan daromadiga ham bevosita bog’landi. Puxta o’ylangan imidj ma’lum bir mahsulotni reklama qilish uchun taniqli shaxs bilan tuzilgan shartnomalar soni va tuzilishiga bevosita ta’sir qiladi, ommaviy ko’ngilochar tadbirarda, teledasturlarda uning keyingi rolini aniqlay oladi va ma’lum bir mahsulot

haqida jamoatchilik fikrini shakllantiradi.

Bundan tashqari, imidjdan foydalanishdan olingen daromad asosiy kasbiy faoliyatdan olingen daromaddan oshishi mumkin. Masalan, reklamadan tushgan daromad Mariya Sharapovani dunyoning eng boy sportchisiga aylantirdi: 2009-yil iyunidan 2010-yil iyunigacha Sharapova 24,5 million dollar ishlab topgan, turnirlarda ishtirok etganlik uchun mukofot puli esa bor-yo‘g‘i 1 million dollar atrofida bo‘lgan. Tennischini reklama shartnomalari, ismdan foydalanish huquqini sotish, shuningdek, o‘z sport kiyimlarini yo‘lga qo‘yish orqali olib keldi. Albatta, bunday tasvir nafaqat insonning tashqi ko‘rinishining xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Imidj - bu ko‘p darajali, ko‘p komponentli, ko‘p funksiyali belgilar tizimi (o‘xshashlik belgilari yoki ramziy allegorik allegoriya) va aloqa kodlari (pardalangan, shifrlangan xabarlar) odamda u yoki bu taassurot qoldiradi. Imidj ijtimoiy va aqliy faoliyatning bir shakli, hissiy til bo‘lib, u orqali jamoat ongi shaxsni aniqlaydi. Tasvirning tarkibiy qismlari umumiy (tashqi ko‘rinish), kinetik (hissiyotlarni ifodalovchi xarakterli tana harakatlari), og‘zaki (og‘zaki), atrof-muhit (moddiy va ijtimoiy muhit) va ob‘ektivlashtirilgan (reifikatsiyalangan) parametrlardir. Xususan, imidjning tarkibiy qismlari ko‘pincha jamoat ongida ma’lum bir shaxs bilan chambarchas bog’liq bo‘lgan xarakterli bayonot, uning identifikasiyasining atributidir. **Jamoatchi shaxsning qiyofasi ishchanlik obro’si, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ijodiy faoliyat natijalarini, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilish zarurati bilan chambarchas bog’liq.** Hozirgi vaqtida O‘zbekiston qonunchiligidagi imidj tushunchasi mavjud emas.

Biroq, boshqa tushunchalar mavjud - intellektual faoliyatning himoyalangan natijalari va individuallashtirish vositalari, intellektual huquqlar, intellektual faoliyat natijalariga yoki individuallashtirish vositalariga bo‘lgan mutlaq huquq, mualliflik huquqi, intellektual mulk, ishbilarmonlik obro’si, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish va boshqalar, ular muayyan vaziyatga bog’liq bo‘lgan shaxsning manfaatlarini himoya qilish uchun ishlatalishi mumkin. tasvirni himoya qilish muammolari.

**1961 yildagi fonogrammalar va radioeshittirish tashkilotlari ishlab chiqaruvchilari, 1971 yil 24 iyulda Parijda qayta ko‘rib chiqilgan Butunjahon mualliflik huquqi konvensiyasi.**

WIPO mualliflik huquqi shartnomasi (WCT) (Jenevadagi Diplomatik konferentsiya tomonidan 1996 yil 20 dekabrda qabul qilingan) va hokazo. **Imidjni sotish, sotib olish yoki sug‘urta qilish mumkinmi?** Afsuski, bu soha bilan shug‘ullanuvchi shaxslar ko‘pincha o‘z faoliyati, munosabatlari va majburiyatlari jarayonida yuzaga keladigan shartnomaga va kelishuvlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish zaruratini e’tibordan chetda qoldiradilar. Ommaga taniqli odamlar o‘z faoliyatida ko‘pincha **taxallus** sifatida tasvir komponentidan foydalanadilar, ular ostida ular ijro etadilar, o‘z asarlarini chop etadilar, ijodiy tanlovlarda, festivallarda va kontsertlarda qatnashadilar. Ularga kelsak, ularning intellektual faoliyati natijalarini o‘g‘irlash, plagiatsiz, pirat kompakt disklarni chiqarish,

daromad olish uchun rasm va taxallusni nusxalash va h.k. taxallusning ma'lum bir shaxsga tegishli ekanligini tasdiqlovchi, muallifligini tasdiqlovchi hujjat bo'lmasa, ularning qonuniy huquqlarini himoya qiladimi? Ijodiy faoliyatning boshida yosh ijro-chi yoki yozuvchi prodyuser yoki nashriyotga qaram bo'lib, ko'pincha obraz yaratish va uni targ'ib qilishda qatnashishi vaziyatni yanada og'irlashtiradi. Manfaatlarni himoya qilish bilan bog'liq ishlar bo'yicha sudga faqat manfaatdor shaxslar murojaat qilish huquqiga ega. Buzilgan huquqni yoki qonuniy manfaatlarni himoya qilish yo'lini tanlash da'vogarga tegishli, shuningdek, da'volarning asosliliginini isbotlash majburiyati. Shu munosabat bilan tasvirni huquqiy himoya qilishning quyidagi muammolari va masalalarini ajratib ko'rsatish mumkin

